




# O'ZBEKISTON BO'YICHA STRATEGIYA

## 2018-2023y.



**European Bank**  
for Reconstruction and Development

Asl hujjatning tarjimasi faqat o'quvchilarning qulayligi uchun YTTB tomonidan ta'minlanadi. YTTB tarjimasining o'rtacha ishonchli ekanligiga ishonch hosil qilish istagiga qaramay, uning aniqligi kafolatlanmagan va tasdiqlanmagan. O'quvchi tarjima qilingan matnning mazmuniga o'z xavf-xatariga tayanishi mumkin. YTTB, uning xodimlari yoki agentlari hech qanday sharoitda o'quvchi yoki boshqa shaxslarga biron-bir muammo, xatolar, kamchiliklar, tarjima qilingan matn mazmunidagi kamchiliklar va / yoki o'zgarishlar sabablari, shuningdek ularning sabablari va barcha zarar uchun javobgar bo'lmaydilar. Ingliz matnlari va tarjima qilingan matn o'rtasidagi nomuvofiqliklar yoki qarama-qarshiliklar mavjud bo'lsa, ingliz tilidagi matn ustunlikka ega.

| Mundarija                                                                                 |    | Asosiy atamalar lug'ati |                                                                |
|-------------------------------------------------------------------------------------------|----|-------------------------|----------------------------------------------------------------|
| Asosiy hulosalar                                                                          | 3  | YBI                     | Yillik Biznes Investitsiyalar                                  |
| O'zbekiston - YETTB hamkorligi bo'yicha qisqacha ma'lumot                                 | 4  | TMKFB                   | Tadbirkorlik muhiti va korxonalar faoliyatini baholash so'rovi |
| I. Avvalgi strategiyani amalga oshirish yakunlari                                         | 5  | MO                      | Markaziy Osiyo                                                 |
| Avvalgi strategik davr mobaynida erishilgan asosiy natijalar                              | 5  | KL                      | Kredit liniyasi                                                |
| Oraliq natijalar, asosiy muammolar va kelajak istiqbollari                                | 6  | FYM                     | EYTTB faoliyat yuritayotgan mamlakatlar                        |
| II. Iqtisodiy muhit                                                                       | 7  | FJT                     | Fuqarolik jamiyati tashkilotlari                               |
| Makroiqtisodiy muhit va statetik davr istiqbollari                                        | 7  | IO'K21                  | BMTning 2015 yildagi Iqlim O'zgarishi Bo'yicha Konferentsiyasi |
| O'tish davridagi asosiy muammolar                                                         | 8  | INI                     | Iste'mol Narxlar Indeksi                                       |
| III. Mamlakatning ustuvor maqsadlari va manfaatdor tomonlarning ishtiroki                 | 10 | KiM                     | Korporativ Ijtimoiy Ma'suliyat                                 |
| IV. YETTBning O'zbekiston bo'yicha strategiyasining ustuvor yo'nalishlarini belgilash     | 11 | A&I                     | Atrof Muhit va Ijtimoiy hayot                                  |
| V. Faoliyat va natijalar tuzilmasi                                                        | 12 | YETTB                   | Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki                          |
| VI. Halqaro hamkor tashkilotlar va YETTB faoliyati yo'nalishlarini uzviyligini ta'minlash | 15 | YEIB                    | Yevropa Investitsiya Banki                                     |
| VII. Amalga oshirishdagi xatarlar, ekologik va ijtimoiy hayotga ta'siri                   | 16 | ATF                     | Atrof-muhitni Tiklash fondi                                    |
| VIII. Donorlar bilan hamkorlikda moliyalashtirish                                         | 17 | EO'M                    | Erta o'tish davri mamlakati                                    |
| 1 Ilova – Siyosiy muhit                                                                   | 19 | O'KT                    | O'tish davrining kutilayotgan ta'siri                          |
|                                                                                           |    | ZSS                     | Zararli chiqindilar bilan savdo qilish sxemasi                 |
|                                                                                           |    | YEK                     | Yevropa Komissiyasi                                            |
|                                                                                           |    | YEI                     | Yevropa Ittifoqi                                               |
|                                                                                           |    | TXI                     | To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar                     |
|                                                                                           |    | MM                      | Moliyalashtirish Muassasasi                                    |
|                                                                                           |    | YaIM                    | Yalpi Ichki Mahsulot                                           |
|                                                                                           |    | YaIMV                   | Yashil Iqtisodiyotni Moliyalashtirish Vositasi                 |
|                                                                                           |    | YaIO'D                  | Yashil Iqtisodiyotga O'tish Davri Issiqxona gazlari            |
|                                                                                           |    | IG                      | Axborot va aloqa texnologiyalari                               |
|                                                                                           |    | AAT                     | Xalqaro Moliyalashtirish Institutlari                          |
|                                                                                           |    | XMI                     | Xalqaro Mehnat Tashkiloti                                      |
|                                                                                           |    | XMT                     | Milliy miqyosda aniqlangan ulush                               |
|                                                                                           |    | MMAU                    | Ilk Ommaviy Taklif                                             |
|                                                                                           |    | IOT                     | Mahalliy Pul Birligi                                           |
|                                                                                           |    | MPB                     | Shahar va atrof-muhit infratuzilmasi                           |
|                                                                                           |    | ShAI                    | Mikro, Kichik va O'rta Korxonalar                              |
|                                                                                           |    | MV                      | Megavat                                                        |
|                                                                                           |    | MK                      | Muammoli Kreditlar                                             |
|                                                                                           |    | RRY                     | Rivojlanish Maqsadida Rasmiy Yordam                            |
|                                                                                           |    | HDH                     | Hususiyl-davlat sektorlari                                     |
|                                                                                           |    | O'FT                    | Hamkorligi                                                     |
|                                                                                           |    | T&R                     | Portfelning o'tish davriga ta'siri                             |
|                                                                                           |    | BEMM                    | Tadqiqotlar va Rivojlantirish                                  |
|                                                                                           |    | KO'K                    | Barqaror energiya manbalarini moliyalashtirish vositasi        |
|                                                                                           |    | DTK                     | Kichik va O'rta Korxonalar                                     |
|                                                                                           |    | TH                      | Davlat Tasarrufidagi Korxona                                   |
|                                                                                           |    | SRD                     | Texnik Hamkorlik                                               |
|                                                                                           |    | UET                     | Savdoni Rivojlantirish Dasturi                                 |
|                                                                                           |    | ABD                     | Umumiy Energiya Ta'minoti                                      |
|                                                                                           |    |                         | Ayollar uchun Biznes Dasturlar                                 |

O'zbekiston YETTBni Tuzish To'g'risidagi Shartnomaning 1-moddasida bayon etilgan tamoyillarga qat'iy rioya etishga va uni qo'llashni kafolatlaydi. O'tgan davrda O'zbekistonning 1-moddaga rioya qila olish imkoniyatlari haqida jiddiy tashvish bildirildi, ammo bu muammolar so'nggi jarayonlar, hususan, 2016 yil oxirida keng ko'lamli islohotlar boshlanishi natijasida yumshatildi. 2017 yilning fevralida, Hukumat 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi (rivojlanish strategiyasi) e'lon qildi, unda islohotlarning keng qamrovli dasturi, jumladan, siyosiy, ma'muriy va huquqiy jihatlar belgilandi. Islohotlar jarayoni boshlang'ich nuqtalardan boshlangan bo'lsada, sezilarli o'zgarishlarga erishildi. Ayniqsa, qonun ustuvorligi va sud mustaqilligi kabi sohalarida o'zgarishlar ro'y berdi. Hukumat tomonidan davlat idoralarining faoliyatini yanada shaffof qilishda va mas'uliyatini oshirishda sezilarli yutuqlarga erishildi. O'zbekiston hukumati islohotlarni amalga oshirishga qat'iy bel bog'laganligi natijasida, demokratik institutlarni mustahkamlash, fuqarolik jamiyatining faoliyat ko'lamini kengaytirish, ommaviy axborot vositalarining erkinligini ta'minlash va ayollarning faolligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keyingi qadamlar kutilmoqda.

Hukumat shuningdek, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini kamaytirish va biznes muhitini mustahkamlash borasida bir qator muhim islohotlarni amalga oshirishga kirishdi. Ushbu keng ko'lamli va jadal islohotlar dasturi asosida, O'zbekiston ichki bozorga yo'naltirilgan iqtisodiy modeldan yanada ochiq, integratsiyalashgan va eksportga yo'naltirilgan iqtisod tomon harakatlanmoqda. Valyuta bozorini liberallashtirish uchun muhim qadamlar qo'yildi. 2017 yil sentyabridan boshlab so'm qiymati liberallashtirildi, va valyuta nazorati yumshatildi. Barqaror ichki va horijiy investitsiyalarning jalb qilinishi va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish davom etishi natijasida, 2018 yilda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati 5 foizdan yuqori bo'lishi taxmin qilinmoqda.

Ushbu ijobiy o'zgarishlarga qaramasdan, O'zbekiston barqaror bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida hali ham jiddiy tizimli muammolarga duch kelmoqda. Bunga raqobatbardoshlikdagi muammolar (bunda davlat organlarining sezilarli darajadagi ishtiroki va sayoz moliyaviy sektor xususiy sektorning rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda), yashil iqtisod (bunda, O'zbekiston energiya sarfi va zaharli gaz ishlab chiqarish ko'rsatkichlari mintaqadagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biri o'lib qolmoqda) va integratsiya (transport va energetika tarmoqlari kam rivojlangan, eksport va savdo kanallari yo'lga qo'yilmagan). Bank turli maslahatlashuvlar va moliyaviy vositalar, jumladan, qo'shni mamlakatlarda samaradorligini isbotlagan vositalar orqali, investitsiyalarni safarbar qilishga va islohotlarni qo'llab-quvvatlashga yordam berishi mumkin. Shu bilan birga, u boshqaruvni kuchaytirish va viloyatlarda loyihalar darajasida gender jihatidan inklyuziv o'sishni rag'batlantirish uchun sarmoyalash imkoniyatlarini ishga solishga e'tibor berishni davom ettiradi. Shuningdek, XMI hamkorlar bilan islohotning ustuvor yo'nalishlarini va ularga tegishli texnik yordam ehtiyojlarini birgalikda aniqlash uchun sektorlarda salohiyatni oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni birinchi darajali vazifalar qatoriga kiritadi.

Shuni hisobga olgan holda, Bank 2018-2023 yillarda O'zbekistonda quyidagi strategik ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirishni rejalashtirmoqda :

- Iqtisodiyotda xususiy sektorning rolini mustahkamlash orqali raqobatbardoshlikni oshirish;
- Tarmoqlar bo'ylab yashil energiya tamoyillarini joriy qilish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish;
- Mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi hamkorlik va integratsiyani oshirishga ko'maklashish.




# O'zbekiston – YETTB hamkorligi bo'yicha qisqacha ma'lumot


## YETTBning O'zbekistondagi Investitsion Faoliyati

|                                                    |      |                      |       |
|----------------------------------------------------|------|----------------------|-------|
| Portfel hajmi                                      | €88m | Faol loyihalar       | 11 ta |
| Ustav kapitaliga kiritilgan investitsiyalar ulushi | 1%   | Faol aktivlar        | €61m  |
| Hususi sektor ulushi <sup>1</sup>                  | 100% | Jami investitsiyalar | €906m |


## YBI va Loyihalar




## Portfel tarkibi (€m)



## Portfel dinamikasi



## O'tish bo'shliqlari<sup>2</sup>



## O'zbekistonga oid asosiy raqamlar

|                                                                   |       |      |
|-------------------------------------------------------------------|-------|------|
| Aholi soni (million) <sup>4</sup>                                 | 32.1  | 2017 |
| Aholi jon boshiga YaIM (AQSH dollari) <sup>4</sup>                | 1,491 | 2017 |
| Global Raqobatbardoshlik Indeksi (GRI)                            | -     | -    |
| Ishsizlik (% XMT) <sup>4</sup>                                    | 7,2 % | 2017 |
| Yoshlar o'rtasidagi ishsizlik (% XMT) <sup>4</sup>                | 17.5% | 2017 |
| Ayollarning ish kuchi sifatida ishtiroki (% XMT) <sup>4</sup>     | 41.6% | 2017 |
| Energiya sarfi (UBET/YaIM) <sup>5</sup>                           | 0.73  | 2015 |
| Zararli gazlar hajmi /YaIM (kgCO2/2010 AQSH dollari) <sup>5</sup> | 1.64  | 2015 |

<sup>1</sup> 2018 yil iyul oyi holatiga.

<sup>2</sup> Uslubiy tafsilotlar uchun YETTBning O'tish Davri bo'yicha hisobotiga murojaat eting. 2017-2018 yillar. <sup>3</sup> Jahon Banki. <sup>4</sup> Xalqaro Mehnat Tashkiloti. <sup>5</sup> HEA energiya Xaritasi.

# 1. Avvalgi strategiyani amalga oshirish yakunlari




European Bank  
for Reconstruction and Development

## 1.1. Avalgi strategic davr mobaynida erishilgan asosiy natijalar

2005 yilda tasdiqlangan strategiya doirasida, YETTB xususiy sektorni rivojlantirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va KO'Kga va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish masalalariga alohida e'tiborni qaratdi. 2005 - 2010 yillar davomida, bank mamlakat bo'ylab amalga oshirilayotgan 20dan ortiq loyihalar uchun €80 mln hajmdagi investitsiyalar ajratdi. 2010 yildan so'nggi qisqa tanaffusdan so'ng, 2017 yilning mart oyida o'zaro yangi Anglashuv Memorandumi imzolangan bo'lib, unga ko'ra qator qisqa muddatga mo'ljallangan maqsadlar ko'lami aniqlanib, mamlakat hayotida chuqurroq ishtirok etish uchun asos yaratildi.

### 1-Ustuvor yo'nalish: Xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash


Portfel 2005-2010



- Kredit liniyalari va bevosita moliyalashtirish loyihalari asosida KO'Kni rivojlantirish.** Shu davrgacha YETTB tomonidan KO'Klarga ajratilgan mablag'larning deyarli 50 foyizi (443 mln. Yevro) mahalliy bank tizimi, shu jumladan, davlat banklari orqali ajratib berilgan. 2005-2010 yillar davomida YETTB tomonidan O'zbekiston bank sektoriga 9,5 mln. Yevroga teng sarmoya kiritildi. Yaponiya-O'zbekiston o'rtasidagi Kichik Biznes Dasturining bir qismi sifatida, YETTB Hamkor Bank bilan birgalikda 27,815 dan ortiq bo'lgan kreditlar (15,6 mln. AQSh dollariga teng) ajratib, ularning 54% asosan qishloq joylarda yashovchi va moliyalashtirish manbalari bo'lmagan yoki cheklangan yangi mijozlarga mo'ljallangan. Shu bilan birga, Bank o'zining EO'M bo'yicha tashabbusi asosida 6 ta KO'Kni bevosita moliyalashtirish orqali o'z e'tiborini murakkab biznes muhitda barqaror rivojlanish ko'rsatkichlarini saqlay olgan mahalliy kichik korxonalarga yo'naltirdi.
- Yirikroq xususiy korxonalarning yam ishlab chiqarish salohiyati mustahkamlandi.** 2005-2010 yillar mobaynida bank tomonidan agrobiznes, sanoat va xizmat ko'rsatish sohasida O'zbekiston korxonalari bilan 8 ta investitsiya amaliyotlarini amalga oshirilishiga qaramasdan, ayrim korxonalar uchun jiddiy tartibga solingan biznes muhitda faoliyat olib borish qator muammolar tug'dirdi.
- Moliyaviy sektorni rivojlantirish borasida erishilgan kichik yutuqlar:** Bank SRD, lizing va Ekspress kreditlar kabi yangi mahsulot tizimlarini joriy qilish maqsadida xususiy sektor korxonalari bilan hamkorlik yuritdi. Ekspress kreditlar o'ta samarali natijalar ko'rsatgan bir vaqtda, SRD va lizing yo'nalishlarini rivojlantirish davlat tomonidan qo'yilgan qattiq talablar va chegaralangan valyuta operatsiyalari kabi to'siqlarga uchradi.

### 2-Ustuvor yo'nalish: Islohotlar jarayonida qatnashish

Texnik hamkorlik 2005-2010



- Biznes bo'yicha maslahat xizmatlari orqali 600 dan ortiq KO'K uchun treninglar tashkil etish.** YETTB KO'Kga biznes reja ishlab chiqish, ishlab chiqarish quvvatlarini qayta tashkil etish va boshqaruv sifatini yanada oshirish maqsadida mahalliy va halqaro maslahatchilarining keng ko'lamlari tarmog'ini tashkil etishga muvaffaq bo'ldi.
- Kommunal xizmat sohasini isloh qilish muvaffaqiyatli amalga oshirildi.** Toshkent shahrini Suv bilan Ta'minlash Loyihasi doirasida Bank pul tushumlarini yaxshilash, to'lovlar tariflarini isloh etish, hususan, elektr energiyasining narxlariga indeksatsiya qilish orqali hamda yuridik va jismoniy shaxs toifasidagi mijozlar o'rtasidagi o'zaro moliyalashtirish jarayonlariga barham berishda ko'mak berdi.
- YETTBning maslahat xizmatlari kreditlash salohiyatlari va kreditlarni baholash imkoniyatlarini kengaytirishga imkon yaratdi.** Texnik hamkorlik uchun yirik hajmdagi mablag'larni jalb qilish orqali, YETTB hamkor banklarga kredit masalalari bo'yicha mutaxassislarining bilimlarini oshirishda va kreditlarni baholash imkoniyatlarini kengaytirishda yordam berdi. Biroq korporativ boshqaruvni takomillashtirish imkoniyatlari, qisman huquqiy va me'yoriy normativ bazasida mavjud bo'lgan kamchiliklar tufayli chegaralangan edi.

<sup>2</sup> EO'M tashabbusi kichik loyihalarni moliyalashtirish, investitsiyalarni jalb qilish va eng muhim o'tish davri qiyinchiliklariga duch kelayotgan mamlakatlarda davom etayotgan iqtisodiy islohotlarni rag'batlantirish uchun oqilona yondashuvdan foydalanadi.

# 1. Avvalgi strategiyani amalga oshirish yakunlari

## 1.2. Oraliq natijalar, asosiy muammolar va kelajak istiqbollari



European Bank  
for Reconstruction and Development

**Dasturni amalga oshirish shartlari:** So'nggi o'n yillik davomida O'zbekistonning iqtisodiyoti hududlar bilan integratsiya qilinmaganligi va makroiqtisodiy barqarorlikka bo'lgan kuchli bosimning salbiy ta'siri ostida qoldi. Biroq 2016 yilning dekabr oyidan boshlab, tarkibiy islohotlar va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish uchun yangi davr boshlandi. Prezident Mirziyoyev rahbarligi ostida Hukumat xalq bilan muloqot qilish, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini cheklash, davlat boshqaruvini takomillashtirish va biznes muhitini mustahkamlash (eng asosiysi, valyuta bozorini liberallashtirish) kabi qator muhim siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirdi. Bundan tashqari, O'zbekiston qo'shni davlatlar bilan munosabatni yaxshilashga va xalqaro tashkilotlar, jumladan YETTB bilan yanada faolroq hamkorlik qilishga qaratilgan siyosatni amalga oshira boshladi. Bu kabi ijobiy o'zgarishlar Bank uchun kechayotgan islohotlarni qo'llab-quvvatlash uchun keng imkoniyatlar yaratib berdi. Xozirga qadar 2017 yilning mart oyida imzolangan o'zaro Anglashuv Memorandumida belgilangan ustuvor yo'nalishlar bo'yicha sezilarli yutuqlarga erishildi.

### 2017 yil mart oyida imzolangan memorandum bo'yicha erishilgan oraliq natijalar

- **KO'K uchun mo'ljallangan moliyaviy xizmatlarni**, xususan kredit liniyalari va SRDLarni (i) O'zbekiston Milliy Banki, (ii) Ipoteka Banki va (iii) Hamkor Bank bilan birga tadbiq qilish.
- Agromir (sharbat ishlab chiqaruvchi), Jo'rabek (farmatsevtika) va Imkon (muzqaymoq ishlab chiqaruvchi) kabi **raqobatbardosh xususiy korxonalarga bevosita kredit ajratish**.
- O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi bilan hamkorlikda hozirda amalga oshirilayotgan loyihalarni hisobga olgan holda, **kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha konsultativ xizmatlarni qayta tiklash**.
- **Tanlangan "Yashil" loyihalarni ishlab chiqish va moliyalashtirish**, hususan, Toshkent, Xorazm va Farg'ona shaharlarida suv va issiqlik bilan ta'minlash loyihalari bo'yicha 5 ta xujjat imzolandi. Viloyatlararo transport va energiya infratuzilmasida o'rta muddatli imkoniyatlarni o'rganish ishlari ham davom etmoqda.
- **Islohotlarga ko'maklashish**, jumladan investitsion muhitni o'rganish, XDH tizimi va mahalliy valyutada kreditlash masalalari bo'yicha munozaralarda faol ishtirok etish.

### Asosiy kuzatuvlar va kelajak istiqbollari

- Boshqa EO'MLarda bo'lgani kabi, kredit liniyalari, xavfni taqsimlash vositalari va SRD ga asosiy e'tibor qaratiladi; mahalliy banklar bilan aloqalar o'rnatilib, qarz oluvchilarni samaraliroq baholash boshlanganidan so'ng, Bank uchun yanada murakkab moliyalashtirish jarayonini boshlash imkoniyatlari yaratiladi. Davlat banklarining muhim rolini va hududiy ko'lamini e'tiborga olib, samarali faoliyat xususiy va davlat banklari bilan hamkorlikda ishlashni talab qiladi.
- Valyuta bozorini liberallashtirish Bankka eksport daromadlariga ega bo'lgan yetakchi kompaniyalardan tashqari ichki bozordagi ko'plab kredit oluvchilarga o'z e'tiborini qaratish imkonini tug'dirdi. Biroq, to'liq natijalarga erishish vaqt talab qilishi mumkin; balanslarni ehtiyotkorlik bilan baholash, ma'lum vaqt oralig'ida imkoniyatlarni aniqlashda moslashuvchanlik talab etiladi.
- Yaqinda amalga oshirilgan grantlash jarayonini tartibga solish Bank uchun tarmoqlarni qayta tiklash va biznes maslahat xizmatlarini ko'rsatish uchun mijozlar va mahalliy konsultantlar bilan avvalgi aloqalarini ishga solish imkoniyatlarini yaratishi mumkin, ammo bu kabi jarayonlar avval sinovdan o'tkazilishi talab etiladi.
- Kommunal va transport infratuzilmalarini boshqarish markazlashtirilib, ushbu tarmoqlar faqatgina davlat ko'magida moliyalashtirilishi mumkin. Uzoq muddatli loyihalarning imkoniyatlarini cheklovchi omillarni bartaraf etish uchun malum vaqt talab etiladi. Boshqa xalqaro moliya tashkilotlari bilan faoliyatlarni samarali muvofiqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.
- Islohotlarga intiluvchan manfaatdor tomonlarni aniqlash va ular bilan samarali munosabatlarni qurish, investitsion muhitni yaxshilash va kuchli (hamon ikkilanayotgan bo'lsa) TXI jalb qilish uchun talab etiladi.

## 2. Iqtisodiy muhit

### 2.1. Makroiqtisodiy vaziyat va strategik davri istiqbollari



European Bank  
for Reconstruction and Development

#### O'zbekiston - asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar

|                                | 2014 | 2015 | 2016 | 2017 |
|--------------------------------|------|------|------|------|
| YaIM o'sishi (%)               | 8.1  | 8.0  | 7.8  | 5.3  |
| INI bo'yicha inflyatsiya (%)   | 9.1  | 8.5  | 8.0  | 12.5 |
| Davlat balansi (YaIM %)        | 3.4  | -1.2 | -0.8 | -0.1 |
| Joriy hisob balansi (YaIM %)   | 1.7  | 0.7  | 0.7  | 3.7  |
| Sof TXI (YaIM %)               | -1.2 | -0.1 | -0.2 | -0.2 |
| Tashqi qarz (YaIM %)           | 14.5 | 18.5 | 20.3 | 41.3 |
| Yalpi zaxiralar (YaIM %)       | 38.2 | 38.7 | 37.8 | 59.0 |
| Yalpi davlat qarzlari (YaIM %) | 8.8  | 9.3  | 10.6 | 24.5 |
| Ishsizlik(%)                   | 9.0  | 8.9  | 8.9  | 5.8  |
| Nominal YaIM (\$ mlrd.)        | 63.2 | 65.4 | 66.8 | 47.9 |

- O'zbekiston iqtisodiyoti ichki bozorga yo'naltirilgan iqtisodiy modeldan ochiq, integratsiyalashgan va eksportga yo'naltirilgan iqtisod tomon sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Bugungi kunga kelib, islohotlar dasturini amalga oshirish ushbu jarayonning sur'ati va ko'lamini bo'yicha istiqbollarni kengaytirdi.
- Bugungi kunga qadar, eng muhim iqtisodiy islohotlardan biri sanalgan valyuta bozorini liberallashtirish boyicha muhim qadamlar qo'yildi. 2017 yilning 5-sentyabridan boshlab, so'mning o'zgaruvchan erkin kursi joriy qilindi va valyuta nazorati yengillashtirildi.
- 2017 yilda real yalpi ichki mahsulotning o'sishi 5,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2018 yilda bu ko'rsatkich 5 foizni tashkil etishi rejalashtirilmoqda. Bu jarayon doimiy mustahkam ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilish va iqtisodiy islohotlarni davom ettirish orqali qo'llab-quvvatlanadi..
- Pul-kredit siyosati 2017 yilning o'rtalarigacha yetarli darajada qulay bo'lib, so'ngra ma'lum chegaralanishlar joriy qilindi. 2017 yilning iyun oyida Markaziy bank kreditlashni kengaytirishni to'xtatish maqsadida qayta moliyalashtirish stavkasini 9 foizdan 14 foizga oshirdi. Byudjet, tashqi va qarzdorlik pozitsiyalar ijobiy bo'lib qolmoqda.
- 2017 yilda inflyatsiya ikki barobarga oshdi. Nisbatan bu ko'rsatkichni pasayishi kutilib, istiqbolda narxlar erkinlashtirilishi natijasida, o'rta muddatda 10% atrofida bo'lishi taxmin qilinmoqda. Maxsulotlar eksportining liberallashtirish yuqori inflyatsiya darajasiga olib kelgan bo'lsa, valyuta bozorini islohot qilishdan avval keng qo'llanilgan norasmiy ayirboshlash kursi tufayli devalvatsiya ta'siri cheklangan darajada bo'ldi.



# 3. Iqtisodiy muhit

## 3.2. O'tish davridagi asosiy muammolar




European Bank  
for Reconstruction and Development

### Raqobatbardosh (2.72)

- Davlat korxonalari va qator xorijiy kompaniyalarga yaratib berilgan imtiyozlar yangi korxonalarning vujudga kelishiga va mavjud kompaniyalarning faoliyatini kengayishiga to'sqinlik qildi.
- Ichki bozor 2017 yilning sentyabr oyiga qadar valyuta konvertatsiyasi bo'yicha cheklovlar va bir nechta ayirboshlash kursi mavjud bo'lgan tizim bilan mustahkam himoyalangan edi.
- Elektr ta'minotidagi uzilishlar, moliyalashtirishning yetishmasligi va tashqi bozorlarga kirish cheklanganligi KO'kning raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.
- Xususi sektorning kreditlardan foydalanish imkoniyatlari darajasi mo'tadil bo'lib, kreditlar bo'yicha qarzдорlik YalMning 29 foizini tashkil etdi.
- Biznes muhit hamon hamon murakkab bo'lib qolmoqda, biroq 2018 yilda O'zbekiston "Doing Business" reytingi bo'yicha o'z holatini sezilarli darajada yaxshilashga muvaffaq bo'ldi.

### 2018 yilda eng qulay biznes muhiti ko'rsatkichlari



### Samarali boshqaruv (4.32)

- O'zbekiston 2017 yilgi iqtisodiy erkinlik indeksiga ko'ra, tartibga solish samaradorligi va qonun ustuvorligi ko'rsatkichlarining past darajasi sababli dunyoning 180 mamlakatlari orasida 148-o'rinni egallab turibdi.
- Tartibga solish samaradorligini yaxshilash bo'yicha qator sohalarida sezilarli muvaffaqiyatlarga erishildi. Shu bilan birga, tartibga solish muhitining samaradorligini yanada oshirish, biznesni tartibga solish va hisobot berishga sarflanadigan xarajatlarni kamaytirish talab etiladi.
- Biznesga doir ma'lumotlarning yetishmasligi va ulardan foydalanish imkoniyatlari hamon chegaralangan, hisobot uslublari talabga javob bermaydi. DK boshqaruvini takomillashtirish umumiy boshqaruvni yaxshilash imkonini yaratadi.
- Korruptsiya muammosi hamon dolzarb bo'lib, sud vakolatlarini oshirish ham talab etilmoqda.

### Butunjahon Boshqaruv Ko'rsatkichlari




Manba: BBK

### Moslashuvchan (3.98)

- Eksport asosan qazib chiqarish va paxta mahsulotlaridan iborat bo'lganligi sababli, O'zbekiston xom-ashyo mahsulotlari narxlarining keskin o'zgarishi holatlari ta'sirida.
- Bank tizimi sezilarli darajadagi davlat ishtiroki bilan xarakterlanadi. Davlat kreditlari imtiyozli ravishda asosan DKga yo'naltirilib, nomuttanosib ravishda taqsimlanadi. DKni kreditlash asosan garovga asoslangan va ularning ehtiyojlari uchun yetarli emas.
- Ehtimol, muammoli kreditlar ko'rsatkichlari kamaytirilib ko'rsatilgan. Biroq, banklarni kapitalashtirish masalalari davlat tomonidan tizimli davlat banklarini qo'llab-quvvatlashi tufayli qisman echilmoqda.
- Elektr quvvati ta'minoti samaradorligi uzatishdagi muammolar, eskirgan uskunalar va talabga javob bermaydigan elektr energiyasi ishlab chiqarish korxonalari tufayli past darajada qolmoqda.

### Iqtisodiyotning diversifikatsiya qilinishining yetarli emasligi tufayli eksportning beqarorligi



Manba: Trademap

## 2. Iqtisodiy muhit

### 2.2. O'tish davri asosiy muammolari




European Bank  
for Reconstruction and Development

#### Integratsiyalashgan (4.20)

- Uzoq vaqt davomida, **O'zbekistonning savdo va investitsiyalarga ochiqligi** joriy hisob va kapitalning konvertatsiyalanishi bo'yicha kiritilgan jiddiy cheklolarga yuz tutdi. Savdo xarajatlari yuqori edi.
- **Transport infratuzilmasini**, ayniqsa, asosiy iqtisodiy markazlardan tashqarida rivojlantirish talab etilib, ichki va halqaro aloqalarni kengaytirish zarur.
- **Xalqaro logistika xizmatlari** bojxona va chegara nazorati samarasizligi sababli yaxshi rivojlanmagan.
- **AKT infratuzilmasi hali ham monopoliyalashtirilgan** va qator xizmatlar shaxarlar bilan chegaralanib qolgan.


#### Integratsiyalanish ko'rsatkichlari



#### Yashil (3.20)

- **O'zbekiston energiya iste'moliga ko'ra** Markaziy Osiyoda ikkinchi ko'rsatkichga ega. Energiya sarfining taxminan 40% qurilishga, sanoatga (23%) va transportga (8%) to'g'ri keladi.
- **Elektr va issiqlik ishlab chiqarishda hozirda asosan tabiiy gaz** (75 foiz va 94 foiz mos holda) qo'llaniladi.
- **O'zbekistonda suv ta'minoti va iqlim o'zgarishi masalalari**, xususan, qishloq xo'jaligi sohasida dolzarb bo'lib qolmoqda.
- **Orol dengizi sathi tobora qisqarib**, 1960 yillardan buyon o'z hajmining 90 foizini yo'qotdi.
- **Uran muammoalri** bo'yicha juda oz ishlar amalga oshirildi.


#### Energiya sarfi (TPES/YaIM PPP boyicha)



#### Inklyuziv (5.34)

- **Ayollarning aksariyati o'z-o'zini ish bilan ta'minlaydi** yoki bepul uy ishlarida bandlar.
- **Mehnat bozoridagi gender tengsizligi**, ayniqsa, tog'-kon, qurilish, metallni qayta ishlash va ishlab chiqarish sohalarda ayollar mehnat qilishi mumkin bo'lgan sohalarni cheklovchi qonunlar bilan kuchaymoqda.
- **Bitiruvchilar soni va yaratilayotgan yangi ish o'rinlari**, xususan, texnik yo'nalishlarida nomuvofiqlik mavjud.
- **Mamlakatning hududlararo rivojlanishidagi katta farqlar** nafaqat bandlik darajasida va infrastruktura va elektr energiyasini yetkazib berishda, balki moliyalashtirish manbalaridan foydalanishda ham o'z aksini topmoqda.

#### Ayollarning to'liq bandlik darajasi (ayollarning umumiy soniga nisbatan, %)



# 3. Mamalakatning ustuvor yo'nalishlari va manfaatdor tomonlarning ishtiroki

## 3.1. Davlat islohotlarining ustuvor yo'nalishlari

Hukumatning "2017-2021 yillarga mo'ljallangan O'zbekistonning rivojlanish bo'yicha beshta ustuvor yo'nalishidagi harakatlar strategiyasi" quyidagi islohotlarni o'z ichiga oladi:

- **Iqtisodiy liberalizatsiya:** Iqtisodiyotda davlatning rolini kamaytirish va xususiy lashtirishni rag'batlantirish; xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirishda ko'maklashish; investitsion muhitni yaxshilash va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish; bank sektorining samaradorligini oshirish; qishloq xo'jaligi sohasini modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalarga investitsiyalar kiritish.
- **Ijtimoiy va ekologik sohalarni rivojlantirish:** Ayniqsa viloyatlarda yoshlarni ish bilan ta'minlash; ayollarning rolini oshirish, shu jumladan tadbirkorlikni rivojlantirish; davlat va kommunal xizmatlari, shu jumladan jamoat transporti va elektr energiyasidan foydalanishni yaxshilash; chiqindi va chiqindi suvlarini qayta ishlash uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish; energiya samaradorligini oshirish, shu jumladan energiyani tejovchi texnologiya va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish.
- **Konstruktiv tashqi siyosat:** Tashqi iqtisodiy faoliyat uchun huquqiy bazani takomillashtirish; O'zbekiston atrofida xavfsizlik va barqarorlik doirasini yaratish maqsadida qo'shni mamlakatlar bilan munosabatlarni rivojlantirish; chegara masalalarini hal qilish.
- **Qonun ustuvorligi:** sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlash va fuqarolik va mulkiy huquqlarni himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlar; huquqiy tizimni, jumladan, savdo va ma'muriy huquqni mustahkamlash; korruptsiyaga qarshi kurashning yangi mexanizmlarini yaratish.
- **Samarali boshqaruv:** Parlament, siyosiy partiyalar va fuqarolik jamiyati rolini kuchaytirish; davlat boshqaruvi tizimini, shu jumladan treninglar, markazsizlashtirish va elektron boshqaruv tizimini isloh qilish; oshkoralikni, jamoatchilikning javobgarligini oshirish; ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish.

## 3.2. YETTBning mahalliy rasmiylar bilan muvofiqlashtirilgan islohotlari yo'nalishlari

- Iqtisodiyotda xususiy sektorning ishtirokini kengaytirish, jumladan, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash;
- Moliyaviy institutlarning kreditlash imkoniyatlarini kuchaytirish;
- Davlat-xususiy sektor hamkorligining samarali mexanizmlarini, jumladan eng zamonaviy amaliyotlar va huquqiy asoslarni joriy etish orqali ishlab chiqish;
- Qayta tiklanadigan energiyani tejash va energiya samaradorligini oshirish uchun energiya tejamkorligi va yashil iqtisodiyotning yechimlarini qo'llab-quvvatlash;
- Kommunal operatorlarni tijoratlashtirish va barqarorligini oshirish, tariflarni isloh qilish;
- Mahalliy valyutada kreditlash va kapital bozorlarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash;
- Barqaror ishbilarmonlik muhitini rag'batlantirish, shu jumladan biznes-kengashlar va hukumat-investorlar bilan muloqot qilish uchun boshqa platformalar yaratish.

## 3.3. Fuqarolik jamiyatidan YETTBga muhim murojaat

- Bankning O'zbekistondagi faoliyati kuchaytirilishi kutilmoqda. Fikrlash erkinligi kabi sohalarda sezilarli ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilgan bo'lsada, FJTlarining imkoniyatlari hamon cheklangan va inson huquqlari muammolari saqlanib qolmoqda.
- Barcha investitsiyalar jiddiy atrof-muhit va ijtimoiy standartlarni talab qiladi.
- Inklyuziv rivojlanish jiddiy muammo bo'lib qolmoqda, viloyatlardagi aholining ko'p qismi, ayniqsa ayollar va yoshlarning islohotlardan manfaatdorligi past darajada bo'lib qolmoqda.
- XMllarining institutsional ko'magi va salohiyatining oshirilishi mavjud ma'muriy kamchiliklarni hisobga olgan holda muhim ahamiyat kasb etadi.
- Qayta tiklanadigan energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishga ehtiyoj katta bo'lib, bunda loyihalar iqtisodiy jixatdan samarali bo'lishi talab etiladi.
- Madaniy meros ob'ektlarining barqaror rivojlanishi va ular bilan bog'liq infratuzilmani yaratish muhim ahamiyatga ega.

# 4. YETTBning O'zbekiston bo'yicha strategiyasining ustuvor yo'nalishlarini belgilash



European Bank  
for Reconstruction and Development

## Nima o'zgarishi kerak? (2-bo'lim)

- Davlatning iqtisodiyotga ortiqcha aralashuvi raqobatga putur yetkazadi;
- KO'K va xususiy sektor uchun cheklangan sayoz moliyalashtirish tizimi;
- Qator davlat korxonalari samarali boshqaruv va institutsional salohiyatga ega emaslar;
- Zaif Iqtisodiy diversifikatsiya;
- Murakkab soliq tizimi va ortiqcha tartibga solish kabi muammoli ishbilarmonlik muhiti;
- Tez o'sib borayotgan aholi uchun, jumladan, kam rivojlangan hududlarda ish o'rinlarining yetishmasligi.



## Buni o'zgartirish mumkinmi? (3- bo'lim)

- Hukumat tomonidan kichik biznes va tadbirkorlikni mustahkamlash, kreditdan foydalanish imkoniyatini kengaytirish va ishbilarmonlik muhiti islohi qilish;
- Innovatsiya, tadbirkorlik va texnologiya orqali BMtning barqaror rivojlanish maqsadlariga mo'ljallangan islohotlarni amalga oshirish;
- Islohotlar dasturini amalga oshirish uchun ma'muriy imkoniyatlarni kuchaytirish;
- Xorijiy investorlar avvalgi muammolar tufayli ehtiyotkorlik bilan munosabat bildiradilar



## Bank nima qilishi mumkin? (4-bo'lim)

- EYTB kichik va o'rta biznesni moliyalashtirib, xususiy sektorga investitsiyalarni yo'naltirishi mumkin
- Kredit liniyalari va maslahatlar berish orqali hududlarda KO'Kni qo'llab-quvvatlash;
- Mahalliy valyutada moliyalashtirishni rivojlantirish, kreditlash imkoniyatlarini kengaytirish va bank sektorini mustahkamlash borasida samarali choralar ko'rish;
- YETTB muhim xususiyashtirish jarayonlarni qo'llab-quvvatlashi va rivojlantirishi mumkin; DK tijoratlashuvda katta tajribaga ega
- YETTB investitsiya iqlimi islohotlarida ko'mak berishi mumkin

## Strategik ustuvorliklar (2018-2023)

## 2023 yilda nimani ko'rishni istaymiz

### Xususiy sektor va ishbilarmonlik muhitini mustahkamlash orqali raqobatbardoshlikni rivojlantirish

- Kuchli KO'Klar va iqtisodiyotda ortib borayotgan roli;
- Xususiy sektor korxonalarining salohiyatining kengayganligi;
- Davlat ishtirokidagi ustuvor tarmoqlarda tijoratlashtirishni oshirish;
- Takomillashtirilgan biznes muhit;

### Tarmoqlararo resurslardan samarali foydalanish va yashil energiya yechimlarini qo'llab-quvvatlash

- Shahar infratuzilmasini takomillashtirish va xizmatlar ko'rsatishni yaxshilash;
- Energiya va resurs samaradorligini oshirish;
- Qayta tiklanadigan energiyadan foydalanishni kengaytirish;
- Atrof muhitni himoya qilishni kuchaytirish.

### Mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi hamkorlik va integratsiya jarayonini qo'llab- quvvatlash

- Transport, energetika va AKT tarmoqlarining sifati va aloqalarini yaxshilash;
- Keng ko'lamli eksport, mintaqaviy va xalqaro savdo va integratsiya.

- Yuqori energiya sarfi;
- Beqaror elektr ta'minoti va energiya / resurslardan samarasiz foydalanish;
- ShAlning sifati va barqarorligini oshirish talab etiladi;
- Qayta tiklanadigan energiya resurslarining energiya tizimidagi kam ulushi;
- Suv ta'minoti muammolari bosimi va iqlim o'zgarishlariga ta'sirchanlik;
- Uran qazib olishdan kelib chiqqan ekologik xavflar saqlanib qolmoqda.

- kommunal infratuzilmani modernizatsiya qilish, xizmat ko'rsatish sifatini va samaradorligini oshirish Hukumatning ustuvor maqsadlari sirasiga kiradi;
- Energiya tejash, toza suv va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan davlat majburiyatlari, shu jumladan IO'K21 MMAUga asosan;
- Qayta tiklanuvchi, jumladan quyosh kabi energiya manbalari salohiyati
- ATF doirasidagi shartnoma ratifikatsiya qilindi

- Barqaror va samarali ShAlni rivojlantirish va sektorni qo'llab-quvvatlashga yordam beradigan katta tajriba;
- Yashil investitsiyalarni moliyalashtirish bo'yicha maxsus ekspertiza (YalO'D, YalMV);
- YETTB moliyaviy va konsultativ ko'magi qayta tiklanuvchan energiya manbalaridan foydalanish imkoniyatlarini rivojlantirishda ko'mak beradi;
- Boshqa xalqaro moliya tashkilotlari bilan hamkorlikda YETTB energiya ishlab chiqarish va tarqatishning samaradorligini oshirishni moliyalashtirishi mumkin;
- Uran muammolari bo'yicha tajriba.

- Tarif va notarif to'siqlar mavjud bo'lgan ichki iqtisodiy model;
- Transport infratuzilmasi, ayniqsa, qo'shnilar bilan aloqa o'rnatishda muhim;
- Internet tarmog'iga ulanishni yaxshilash uchun AKT infrastrukturasi takomillashtirish talab etiladi;
- Yetarli darajada rivojlanmagan ta'minot zanjiri va eksport kanallari hamda logistik to'siqlar savdo jarayoniga to'siq bo'lmoqda;
- Turizmning qo'llanilmagan salohiyati va zaif infratuzilmasi.

- Yuqori darajadagi qo'shni davlatlar bilan qayta ishlashga qaratilgan sayi-harakatlar;
- Strategik ahamiyatga ega bo'lgan Bir Belbog' Bir Yo'l transport loyihalari;
- Hukumat HDH imkoniyatlarini o'rganmoqda;
- Valyuta bozorini erkinlashtirish qo'shimcha investitsiya imkoniyatlarini ochishi mumkin;
- Importning o'rmini bosuvchi mahsulotni ishlab chiqarishga qaratilgan siyosat hamon sanoat bo'yicha siyosatning bir qismi bo'lib qolmoqda;
- Turizm va tegishli infratuzilma mintaqaviy aloqa va barqarorlikni oshirishi mumkin.

- YETTB XMI bilan birgalikda transport infratuzilmasi muammolarini qisqartirish va AKT infratuzilmasini takomillashtirishda, shuningdek, tijoratlashtirish va xususiy sektor ishtirokini qo'llab-quvvatlash uchun hamkorlikka shay;
- YETTB mintaqaviy energetik hamkorlikni qo'llab-quvvatlashi mumkin
- YETTBning jalb etilishi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va SRD dasturlarini amalga oshirish va eksportni kengaytirish va korxonalar rivojini ta'minlay oladi;
- YETTBning Madaniy meros investitsiyalari sayyohlikni rivojlantirishi, shahar va transport infratuzilmasini yaxshilashi mumkin.

# 5. Faoliyatlar va natijalar tuzilmasi

## 1-Ustuvor yo'nalish: Xususiy sektor va ishbilarmonlik muhitini mustahkamlash orqali raqobatbardoshlikni oshirish

| Maqsadlar (Natijalar)                                                                                      | Faoliyatlar (Natijalar)                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  | Natija ko'rsatkichlari                                                                                                                                                                                                                                                            |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Moliyalashtirish va salohiyatni kengaytirish orqali KO'Kning iqtisodiyotdagi mustahkam o'rni               | <ul style="list-style-type: none"> <li>Rivojlanayotgan, yuqori salohiyatli, shu jumladan ayollar rahbarlik qilayotgan va mintaqalararo KO'Kga ishlab chiqarish imkoniyatlarini oshirish, raqobatbardoshlik va boshqaruvni takomillashtirish uchun to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish va maslahatlar berish.</li> <li>Mahalliy davlat va xususiy banklar orqali umumiy va maqsadli kredit liniyalari (masalan, "Ishbilarmon Ayol va yashil investitsiyalar" uchun) va xavfni taqsimlash bo'yicha vositalar orqali MKO'Kni oraliq moliyalashtirish va ularga kredit berish imkoniyatlarini yaxshilash uchun texnik ko'mak ko'rsatish.</li> <li>Mahalliy valyutada kreditlash mexanizmlarini, jumladan, mahalliy pul birligi va kapital bozorlarini rivojlantirishga qaratilgan siyosatni ishlab chiqishga qaratilgan choralar.</li> </ul> | <ul style="list-style-type: none"> <li>Ishlab chiqarish yoki pul aylanmasi hajmining o'sishiga erishgan bankdan maslahat olgan mijozlar</li> <li>Hususiylashtirish muassasalari tomonidan MKO'Klarga ajratilgan kreditlarining umumiy soni / hajmi (jumladan ABD, MPB)</li> </ul> |
| Xususiy kompaniyalarning o'sish va qiymatini oshirishdagi keng qamrovli salohiyatlari                      | <ul style="list-style-type: none"> <li>Raqobatbardosh, rivojlanishga yo'naltirilgan xususiy kompaniyalarga o'z salohiyatlarini kengaytirish, standartlarni takomillashtirish, energiya resurslarini tejash, inklyuziv rivojlanish va mintaqaviy va global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuvda imkoniyatdan kelib chiqqan holda mahalliy valyutada to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish va bunda asosiy e'tiborni agrobiznes, ishlab chiqarish va xizmatlar va AKT sohalariga qaratish.</li> </ul>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    | <ul style="list-style-type: none"> <li>Savdo / maxsulot ayirboshlash / daromad hajmining o'sishiga erishgan korxonalar;</li> <li>Korporativ boshqaruv va/yoki boshqa standartlarni takomillashuviga erishgan korxonalar soni</li> </ul>                                           |
| Davlat ishtirokidagi ustuvor tarmoqlarda tijoratlashtirishning va hususiy sektorning ulushining o'sganligi | <ul style="list-style-type: none"> <li>DK bilan quyidagi faoliyatlar bo'yicha hamkorlik qilish: <ul style="list-style-type: none"> <li>boshqaruvni takomillashtirish, moliyaviy va operatsion faoliyatni (jumladan, energiya / resurs samaradorligini oshirish) va tijoratlashtirishni rivojlantirish;</li> <li>shaffof xususiyashtirishni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash va xususiyashtirish jarayonida tegishli moliyaviy va maslahat yordamini taqdim etish;</li> <li>imkon boricha, xususiy sektor ishtirokini, shu jumladan, davlat va xususiy sektorlar hamkorligini rivojlantirish orqali oshirish;</li> </ul> </li> </ul>                                                                                                                                                                                                |                                                                                                                                                                                                                                                                                   |
| <ul style="list-style-type: none"> <li>Takomillashtirilgan biznes muhit</li> </ul>                         | <ul style="list-style-type: none"> <li>Davlat-xususiy sektor orasidagi muloqotni mustahkamlash, barqaror ishbilarmonlik muhitini shakllantirish va investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan siyosatni amalga oshirish;</li> <li>Shaffof va raqobatbardosh davlat xaridlari tartiblarini ishlab chiqish, HDH va KO'Kning huquqiy va me'yoriy asoslarini takomillashtirishga ko'maklashish.</li> </ul>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    | <ul style="list-style-type: none"> <li>Biznes muhitini yaxshilash uchun huquqiy, institutsional va qonuniy o'zgarishlar</li> </ul>                                                                                                                                                |





## 5. Faoliyatlar va natijalar tuzilmasi

### 2-Ustuvor yo'nalish: Tarmoqlararo yashil energiya va resurslar samaradorligi bo'yicha yechimlarni qo'llab-quvvatlash

| Maqsadlar<br>(Natijalar)                                                                                                   | Faoliyatlar<br>(Natijalar)                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      | Natija ko'rsatkichlari                                                                                                                                                                                                                                                  |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p>Energiya va resurs samaradorligini oshishi</p> <p>Shaxar kommunal infratuzilma xizmatlari samaradorligining oshishi</p> | <ul style="list-style-type: none"> <li>Davlat, xususiy va tijorat sohalarida, shu jumladan, qazib chiqarish sohasi va binolarda energiya va resurslar samaradorligini oshirish, atrof-muhitni yaxshilash va iqlim o'zgarishini kamaytirishga qaratilgan investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash;</li> <li>Toza va samarador energiya ishlab chiqarish va tarqatishni qo'llab-quvvatlash; neft va gazni qazib chiqarish bo'yicha qiymat zanjirida potentsial energiya resurslari samaradorligi va atrof-muhitni tiklash investitsiyalari; tegishli neft gazini yondirishni qisqartirish; gaz quvurlari tizimlarini modernizatsiya qilish va qurish; mavjud gaz hajmini qayta ishlash va tiklashni qo'llab-quvvatlash;</li> <li>Ichimlik suvi, chiqindi suvlari, qattiq chiqindilar, tumanlarni isitish, ko'chalarni yoritish va shahar transport tizimi, jumladan, "Yashil shaharlar tashabbusi" bilan birgalikda kommunal infratuzilma xizmatlari, energiyasini tejashni samarali modernizatsiya qilishni moliyalashtirish;</li> <li>ShAI sektorida institutsional muammolarni hal qilish bo'yicha, tarif islohoti, shahar xizmatlarini ko'rsatishni tijoratlashtirish va energiya va resurslar samaradorligini oshirish kabi institutsional muammolarni hal qilish bo'yicha siyosatni amalga oshirish.</li> </ul> | <ul style="list-style-type: none"> <li>Jami tejalgan energiya</li> <li>Jami CO2e kamaygan miqdori (tonna / yil)</li> <li>Jami iqtisod qilingan suv hajmi (hajm / yil)</li> <li>Kommunal va energetika infratuzilmasining sifati va samaradorligining oshishi</li> </ul> |
| <p>Qayta tiklanadigan energiyadan foydalanish hajmining o'sganligi</p>                                                     | <ul style="list-style-type: none"> <li>Quyosh, shamol va gidroenergetika sohasida qayta tiklanadigan energiya sarmoyalarini moliyalashtirishga oid qonunchilik bazasini ishlab chiqish uchun tegishli islohotlarni amalga oshirish (masalan, ZSSni rivojlantirish)</li> </ul>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   | <ul style="list-style-type: none"> <li>Yangilanadigan energiya quvvati o'rnatildi (MWt)</li> </ul>                                                                                                                                                                      |
| <p>Atrof muhitni muhofaza qilish takomillashtirildi</p>                                                                    | <ul style="list-style-type: none"> <li>YETTBning Markaziy Osiyoda atrof-muhitni tiklash fondi (ATF) ishtirokida urandan foydalanish oqibatlarini bartaraf etish loyihalarini qo'llab-quvvatlash</li> <li>Barcha sanoat tarmoqlarida, shu jumladan, gazlashtirish yo'nalishida yashil investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash</li> </ul>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            | <ul style="list-style-type: none"> <li>Xalqaro standartlarga muvofiq qator atrof-muhitni himoya qilish loyihalarini amalga oshirildi</li> </ul>                                                                                                                         |

## 5. Faoliyatlar va natijalar doirasi

### 3-Ustuvor yo'lanish: Mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi hamkorlik va integratsiyani rivojlantirishni qo'llab quvvatlash

| Maqsadlar<br>(Natijalar)                                                                  | Faoliyatlar<br>(Natijalar)                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     | Natija ko'rsatkichlari                                                                                                                                         |
|-------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Transport, energetika va AKT tarmoqlarining sifati va o'zaro aloqalari takomillashtirildi | <ul style="list-style-type: none"> <li>Mintaqadagi aloqalarni yaxshilash uchun va bunda imkon qadar, xususiy sektor korxonalarini jalb etgan holda transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, jumladan, asosiy yo'l koridorlarini tiklash va xizmat ko'rsatish, temir yo'l tarmog'ini (shu jumladan, harakat sostavlarini) modernizatsiya qilish, aeroport va tegishli infratuzilmani takomillashtirish, transport infratuzilmasini rivojlantirish</li> <li>Mintaqaviy gaz va elektr energiyasini uzatish va tarqatish tarmoqlarini modernizatsiya qilish yo'li bilan energiya manbalarini kengaytirishni qo'llab quvvatlash;</li> <li>Transport, AKT va energiya sohasidagi tanlangan davlat korxonalariga investisiya kiritish imkoniyatlarini ko'rib chiqish, va ushbu bilan ularni sayohatini oshirish, tarmoqni tijoratlashtirish va ta'minot tizimini isloh qilish;</li> <li>Mamlakat bo'ylab AKTlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, jumladan, tezkor internet tarmog'iga ulanishni qo'llab-quvvatlash tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash.</li> </ul>                                                                | <ul style="list-style-type: none"> <li>Transport infratuzilmasining salohiyatini oshirish / takomillashtirish</li> </ul>                                       |
| Keng qamrovli eksport, mintaqaviy va xalqaro savdo va integratsiya                        | <ul style="list-style-type: none"> <li>Mintaqaviy va xalqaro savdo va TXIni yanada kengaytirishga ko'maklashish: <ul style="list-style-type: none"> <li>kompaniyalar, shu jumladan kichik va o'rta biznesni korxonalarini qo'llab quvvatlash va raqobatbardoshlik darajasini oshirish, ta'minot zanjiri va eksport kanallari bilan aloqa o'rnatish va tegishli xalqaro sifat standartlari va sertifikatlari talablariga javob berishga erishish</li> <li>Bankning savdoga ko'maklashish dasturini (masalan, savdoni moliyalashtirish va eksportni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari orqali) davlat va xususiy moliya muassasalari bilan ishlash; va</li> <li>davlat investitsiya organlari va istiqbolli investorlar bilan konsultativ va moliya sohalarini o'z ichiga olgan tarmoqlar bo'yicha aloqalarni rivojlantirish</li> </ul> </li> <li>Madaniy meros ob'ektlarini va turizm infratuzilmasini qo'llab-quvvatlash maqsadida moliyaviy resurslarni va texnik ko'mak ko'rsatish orqali mintaqaviy aloqa va integratsiyani mustahkamlash (masalan, mehmonxonalar, sayohlik KO'Klar va tegishli shahar va transport infratuzilmasi)</li> </ul> | <ul style="list-style-type: none"> <li>Eksport salohiyati oshgan korxonalar soni</li> <li>SRD bo'yicha imzolangan bitimlarining umumiy soni / hajmi</li> </ul> |



# 6. Halqaro hamkor tashkilotlar va YETTB faoliyati uzviyligini ta'minlash



European Bank  
for Reconstruction and Development

YETTB FAOLIYATI YO'NALISHLARI

|                                                                                                                       |     | Sohalar    |               |               |     |                  |               |                      |                   |         |               |                 |                                        |                          |                               |                | Boshqa             |                           |                   |              |         |         |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|------------|---------------|---------------|-----|------------------|---------------|----------------------|-------------------|---------|---------------|-----------------|----------------------------------------|--------------------------|-------------------------------|----------------|--------------------|---------------------------|-------------------|--------------|---------|---------|
|                                                                                                                       |     | Umumiy     |               |               |     | Energiya         |               | Infrastruktura       |                   |         |               | Moliyaviy       |                                        |                          |                               |                | Yashil iqtisodiyot |                           |                   | Qamrab olish |         |         |
| Indikativ o'rtacha yillik sarmoya / grantlar (2014-2017, € million, byudjetga ko'maklashishga ajratilgandan tashqari) |     | Agrobiznes | Umumiy sanoat | Ko'chmas mulk | AKT | Tabiiy boyliklar | Elektr quvvat | Suv va oqava suvlari | Shahar transporti | Yo'llar | Temir yo'llar | Bank xizmatlari | Sug'urta va boshqa moliyaviy xizmatlar | MKO'Kni Moliyalashtirish | Xususiy aksiyadorlik kapitali | Sarmoya bozori | Suv samaradorligi  | Materiallar samaradorligi | Barqaror energiya | Gender       | Yoshlar | Mintaqa |
| OTB                                                                                                                   | 575 | €P         |               | €P            |     | €P               | €P            | €P                   |                   | €P      | €P            | €P              |                                        | €P                       |                               |                | €P                 |                           | €P                | €P           |         | €P      |
| JICA                                                                                                                  | 386 |            |               |               |     |                  | €P            |                      |                   |         |               |                 |                                        |                          |                               |                | €                  |                           |                   |              |         |         |
| JB                                                                                                                    | 322 | €P         |               | €             |     |                  | €P            | €P                   |                   | €P      | €P            | P               |                                        |                          |                               | P              | €P                 |                           | €                 |              | €P      | €P      |
| ITB                                                                                                                   | 192 |            | €             |               |     |                  | €P            | €P                   |                   |         |               | €               |                                        | €                        |                               |                | €P                 |                           |                   |              |         |         |
| AFD                                                                                                                   | 24  | €          |               |               |     |                  |               | €P                   |                   |         |               |                 |                                        |                          |                               |                | €P                 |                           | €                 |              |         |         |
| HMK                                                                                                                   | 22  | €P         | €P            |               |     |                  |               |                      |                   |         |               | €               | €                                      | €                        |                               |                |                    |                           |                   |              |         |         |
| GIZ                                                                                                                   | 14  | €P         |               |               |     |                  |               | €P                   |                   |         |               |                 |                                        |                          |                               |                | €P                 |                           |                   |              |         | €P      |
| KOICA                                                                                                                 | 8   |            |               |               | €P  |                  |               | €P                   | €P                |         |               |                 |                                        |                          |                               |                |                    |                           |                   |              | €P      |         |
| EI                                                                                                                    | 3   | €          |               |               |     |                  |               | €P                   |                   |         |               |                 |                                        | €P                       |                               |                |                    |                           |                   | P            | €P      | P       |
| YETTB                                                                                                                 | 69  | €          | €             |               | €P  | €P               | €P            | €P                   |                   |         | €P            | €P              | €                                      | €P                       |                               |                | €P                 |                           | €P                | €P           |         |         |

€ Muhim investitsiyalar sohasi

P Siyosiy dialog bo'yicha muhim soha

Asosan xususiy sektorga yo'naltirilgan

Asosan davlat sektoriga yo'naltirilgan

## Istiqboldagi hamkorlik sohalari

### Raqobatbardoshlik

- Jahon banki, HMK va Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlikda moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish;
- Investitsiya muhitini yaxshilash va samarali boshqaruvni ta'minlash uchun Jahon Banki va BMTD bilan hamkorlik qilish.

### Yashil iqtisodiyot

- OTB va HMK bilan islohotlarni qo'llab-quvvatlash va qayta tiklanadigan energiyani hamkorlikda moliyalashtirish masalalarini ko'rib chiqish;
- HMK va JICA bilan hamkorlikda ShAI sohasida loyihalarni moliyalashtirish va / yoki ShAI bilan bog'liq islohotlarni qo'llab-quvvatlash, shu jumladan, HDHni joriy qilish.

### Integratsiya

- Mintaqaviy integratsiyani jadallashtirish maqsadida OTB va JB hamkorlikda transport infratuzilmasini moliyalash.

### Inklyuziv

- Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturining gender tenglik va ayollarning iqtisodiy salohiyatini oshirish bo'yicha loyihalari bo'yicha hamkorlik.

# 7. Amalga oshirishdagi xatarlar, ekologik va ijtimoiy hayotga ta'siri

| Strategiyani amalga oshirishdagi xatarlar                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                | Ehtimollik                                                                          | Ta'siri                                                                             | Atrof-muhit va ijtimoiy choralar                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <ul style="list-style-type: none"> <li><b>Moliya bozorlarida yuqori likvidlik:</b> davlat banklari moliya bozorlarida ustunlik qiladi va notijoriy moliyalashtirish manbalariga ega bo'lib, bu YETTB tomonidan ajratiladigan mablag'ning samarasizligiga olib keladi.</li> </ul>                                                                                                                                                         |    |    | <ul style="list-style-type: none"> <li><b>Atrof-muhit va ijtimoiy ta'sirlarni baholash va boshqarish, manfaatdor tomonlar ishtiroki:</b> Loyihalarning bevosita, bilvosita va kumulativ ta'sirini to'g'ri baholash va kamaytirishni ta'minlash va mijozlar bilan birgalikda A&amp;I dasturni amalga oshirish imkoniyatlarini ta'minlash. Bank mijozlarning KIM va manfaatdor tomonlar bilan ishlash bo'yicha bilim va tajribalarini yaxshilash choralari amalga oshiradi.</li> </ul>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 |
| <ul style="list-style-type: none"> <li><b>Ma'lumotlarning mavjudligi va sifati:</b> loyihalarning monitoringi qo'shimcha choralar va muloqotni talab qilishi mumkin, chunki mavjud va ishonchli ma'lumotlar biroz cheklangan. Bu davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni talab qiladigan loyihalarning amalga oshirish sur'atlariga ta'sir qilishi mumkin, jumladan, davlat banklari orqali ShAI va KO'Klarni kreditlashga.</li> </ul>     |    |    | <ul style="list-style-type: none"> <li><b>Mehnat va mehnat shartlari:</b> Mijozlarning kadrlar siyosati va mehnat amaliyotini YETTB talablariga muvofiqlashtirish, ishchilar tashkilotlariga, bolalar va majburiy mehnatga, ish vaqtini va ish haqi standartlarini, ozchilikni tashkil etuvchi guruhlar va ayollarga nisbatan kamsitish va mehnat muhojirlarining ish sharoitlari va shartlariga alohida e'tibor berish. Katta hajmdagi qisqartirishlar xususiyashtirish bilan bog'liq bo'lib, maxsus rejalashtirishni talab qiladi. Ta'minot zanjiri boshqaruvi ayniqsa qishloq xo'jaligi sohasida jiddiy nazorat ostiga olinadi.</li> </ul>                                                                                                                                                        |
| <ul style="list-style-type: none"> <li><b>Valyuta ayirboshlanishining inflyatsiya ta'siri</b> to'liq namoyon bo'lishi uchun vaqt talab etiladi va kompaniyalarning moliyaviy ko'satkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, istiqbolli mijozlarning xavf-xatarini baholashni uzoq va murakkab jarayonga aylantiradi.</li> </ul>                                                                                                      |    |    | <ul style="list-style-type: none"> <li><b>Resurs samaradorligi va atrof-muhitni ifloslanishning oldini olish va nazorat qilish:</b> YETTBning investitsion ustuvor maqsadlari suv va tuproqning ifloslanishi va degradatsiyasini, issiqxona gazlari ajralib chiqishi va atrof muhitga va inson sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatadigan kimyoviy moddalarni ishlatish kamaytirishga qaratiladi. YETTB qattiq chiqindilarni boshqarish, shu jumladan joylarda saralash va qayta ishlashga qaratilgan infratuzilmalarni yaratishni rag'batlantirish tizimlarni yaxshilashga ko'mak beradi. YETTB shuningdek, kamroq energiya sarflaydigan iqtisodiyotga o'tishni va atmosfera ifloslanishini kamaytirishga yo'naltirilgan Yalo' hususiyatlariga ega bo'lgan loyihalarni qo'llab-quvvatlaydi.</li> </ul> |
| <ul style="list-style-type: none"> <li><b>Ishbilarmonlik muhiti va islohotlarning kechikishi xavfi:</b> YETTBning asosiy faoliyati kuchli sarmoyalar oqimiga, samarali boshqaruvga va oshkora tartibga soluvchi mexanizmlarga bog'liq. Biznes muhitini yaxshilash uchun ko'plab ijobiy ilk qadamlar qo'yilgan bo'lsada, cheklangan imkoniyatlar va / yoki qiziqishning susayishi tufayli sekinlashishi yoki to'xtashi mumkin.</li> </ul> |   |   | <ul style="list-style-type: none"> <li><b>Sog'liqni saqlash va xavfsizlik:</b> YETTB kasbiy va jamoaning salomatligi va xavfsizligi bo'yicha madaniyatini va amaliyotini yaxshilashga intiladi. Yo'l harakati xavfsizligi va mijozlar tomonidan transport parkini boshqarish transport loyihalari uchun ustuvor vazifalar bo'lib, TH mablag'larini talab qilishi mumkin. Ichimlik suvidan foydalanish va umumiy oziq-ovqat xavfsizligi boshqa ustuvor maqsadlar sirasiga kiradi.</li> </ul>                                                                                                                                                                                                                                                                                                          |
| <ul style="list-style-type: none"> <li><b>Grantlarning davlat tomonidan ko'rib chiqish:</b> ilgari YETTB grantlari oluvchi korxonalar tomonidan (masalan, KO'K yoki ShAI uchun) davlatning tegishli ruxsatini olishida muammolar yuzaga kelar edi. Yangi oddiylashtirilgan jarayonlarning samaradorligi sinovdan o'tishi talab etiladi.</li> </ul>                                                                                       |  |  | <ul style="list-style-type: none"> <li><b>Yerni sotib olish, majburiy ko'chirish va iqtisodiy ko'chish:</b> YETTB ta'sirga uchragan insonlarga konsultativ xizmat ko'rsatish va ma'lumot berishni yaxshilashga e'tibor qaratadi. Istiqomat qiluvchi aholining huquqiy maqomlari aniq bo'lmagan hollarda, YETTB talablariga muvofiq ularga kompensatsiya to'lash va yashash sharoitlarini qayta tiklanishi ta'minlanadi.</li> </ul>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |
|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          |                                                                                     |                                                                                     | <ul style="list-style-type: none"> <li><b>Biologik xilma-xillikni saqlash va tabiiy resurslarni barqaror boshqarish:</b> Qayta tiklanadigan energiya va infratuzilma loyihalari zaif yashash joylariga, qo'riqlanadigan hududlar yoki tavsifi etilgan yoki mavjud bo'lgan ob'ektlarga kirish va fragmentatsiyalash ta'siri natijasida salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Yerlarning tanazzuliga olib keladigan keng qamrovli suvdan foydalanish jarayoni yashash joyining yo'qolishiga olib kelib, bio hilma-hillikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. YETTB biologik xilma-xillikka ta'sirni baholashning ishonchli usullarini taqdim etadi va talab qilinganda TH bo'yicha ko'mak ko'rsatadi.</li> </ul>                                                                                             |
|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          |                                                                                     |                                                                                     | <ul style="list-style-type: none"> <li><b>Madaniy meros:</b> Ta'sirchan madaniy merosni himoya qilish bo'yicha asosiy manfaatdor tomonlarni aniqlash va ular bilan konsultatsiyalar o'tkazish maqsadida mijozlar bilan ishlash.</li> </ul>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           |
|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          |                                                                                     |                                                                                     | <ul style="list-style-type: none"> <li><b>Moliyaviy vositachilar:</b> Hamkor MMning etarli darajada A&amp;I imkoniyatlar va xavflarni boshqarish tartibiga ega bo'lishini ta'minlash va YETTBning kredit liniyalari doirasida moliyalashtiriladigan loyihalarga tegishli A&amp;I talablarini qat'iyon amalga qo'llashni ta'minlash.</li> </ul>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       |
|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          |                                                                                     |                                                                                     | <ul style="list-style-type: none"> <li><b>Monitoring va boshqarish:</b> mijozlar bilan A&amp;I faoliyatini kuzatib borish va Bank portfeli bilan bog'liq bo'lgan dolzarb masalalarni hal qilish masalalari bo'yicha hamkorlik qilish. Salohiyatni va xabardorlik darajasini oshirish uchun TH mablag'laridan foydalanish.</li> </ul>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 |

# 8. Donorlar bilan hamkorlikda moliyalashtirish

## 8.1. Yangi Mamlakat strategiyasi davri uchun grantlarga bo'lgan talablarini baholash

Grandlar mamlakat strategiyasining strategik maqsadlariga erishish, shu jumladan, quyidagi choralarni qo'llab-quvvatlash uchun talab etiladi:

- MKO'Kni kreditlash orqali xususiy sektorni rivojlantirish, jumladan mahalliy valutada moliyalashtirish va kichik biznes bo'yicha konsultativ xizmatlarni joriy etish;
- YETTBning "Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish" loyihasini amalga oshirish orqali yashil iqtisodiyotga o'tish;
- Shahar darajasida "Yashil" loyihalarni moliyalashtirish va loyihalash;
- Mintaqaviy infratuzilma va energetika sohasidagi o'zaro aloqalarni yaxshilash (o'rta muddatga belgilangan);
- Siyosiy va huquqiy islohotlarni amalga oshirishda texnik yordam talab etiladi. Eng muhim sohalarga salohiyatni oshirish, qayta tiklanadigan resurslar bo'yicha qonun (tariflash asosida), MKO'K bo'yicha qonunchilik, biznes kengashlar, investitsiya iqlimi islohotlari, HDHning huquqiy asoslari, ta'minot qonunchiligi va milliy valyutada kreditlash kiradi.


| Tanlangan iqtisodiy ko'rsatkichlar                        | YETTB<br>mintaqaviy<br>guruhi <sup>1</sup> |         |
|-----------------------------------------------------------|--------------------------------------------|---------|
| Aholi jon boshiga YaIM (PPP, joriy \$) <sup>2</sup>       | 6,563                                      | 8 (FYM) |
| RRY mamlakati                                             | Ha                                         |         |
| RRY ning yalpi milliy daromaddagi ulushi (%) <sup>3</sup> | 0.67                                       | 24      |
| Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan RRY (\$) <sup>3</sup> | 14.4                                       | 16      |

1. O'zbekistondan so'ng joylashgan YETTB ulushiga ega mamlakatlar (RRY ko'rsatkichlari bo'yicha) ulushi bo'yicha oddiy hisobot ko'rstakichlari. 2. XVf (2016). 3. OECD (2016). 4. Tahlillar Bankning 2018 yilgi rejasini moliyalashtirish bo'yicha operatsion guruhlardan olingan ma'lumotlarga asoslanadi.

## 8.2. Grantlarni moliyalashtirishning istiqbolli manbalari

- Donorlik yordami ko'p donorlik mablag'lar fondi hisobidan ajratiladi: YETTB Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash fondi (KBQF) va YETTBning erta o'tish davlatlari jamg'armasi va boshqa ikki tomonlama donorlik jamg'armalari.
- Evropa Ittifoqi Markaziy Osiyo investitsiya jamg'armasi (MOIJ) yordamida kichik va o'rta biznesning raqobatbardoshligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha mintaqaviy loyihalar uchun grant mablag'larini ajratadi. Markaziy Osiyoda barqaror energetika loyihalarini amalga oshirish uchun Evropa Ittifoqi tomonidan qo'shimcha mablag'lar ajratish imkoniyatlari ko'rib chiqilmoqda.
- YETTB shuningdek, Yashil iqlim jamg'armasi va Global atrof-muhit jamg'armasi mablag'laridan foydalanish imkoniyatlarini ham o'rganadi.
- YETTB aktsiyadorlarining maxsus jamg'armasi donorlarning resurslarini to'ldirish uchun qo'shimcha manba bo'lib, bunda o'tish chora tadbirlari ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Grant mablag'laridan moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyojlar turi va sektor bo'yicha - 33 mln. Evro <sup>4</sup>







*ILOVALAR*

O'zbekiston YETTBni Tuzish To'g'risidagi Shartnomaning 1-moddasida bayon etilgan tamoyillarga qat'iy rioya etishga va uni qo'llashni kafolatlaydi. O'tgan davrda, O'zbekistonning 1-modda talablarini bajara olish imkoniyatlari haqida jiddiy tashvish bildirilishiga qaramasdan, yaqin o'tgan davr ichida, bu yo'nalishda qator sezilarli ijobiy o'zgarishlar amalga oshirildi. 2013 yildan so'ng, xalqaro tashkilotlarning jiddiy xavotirlariga sabab bo'lib kelgan O'zbekistonning davlat boshqaruvi va inson huquqlari sohasidagi ko'rsatkichlari yaxshilanib bora boshladi.<sup>1</sup> Biroq, 2016 yilgi Evropa Ittifoqining inson huquqlari bo'yicha hisobotida "inson huquqlari muammolari O'zbekistonda hamon keng kuzatilib kelinayotganligi" haqida tashvish bildirildi. Vaziyat yaxshilanganiga qaramasdan, u "juda muammoli darajada" ekanligi ta'kidlandi".<sup>2</sup>

Prezident Mirziyoevning 2016 yilning dekabridagi saylovlardagi g'alabasidan so'ng o'zgarishlar sur'ati sezilarli darajada tezlashdi. 2017 yilning Fevralida, Hukumat 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi (rivojlanish strategiyasi) e'lon qildi, unda islohotlarning keng qamrovli dasturi, jumladan, siyosiy, ma'muriy va huquqiy jihatlar belgilandi. 2017 va 2018 yil boshlarida, O'zbekiston hukumati tomonidan mamlakat hayotining ko'plab jihatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatgan va kelajakda muhim taraqqiyotga yo'l ochadigan qator bayonotlar, qarorlar va qonunlar qabul qilindi.

Prezident o'z ma'muriyatining tarkibini har tomonlama qayta ko'rib chiqdi va viloyat darajasida qator tayinlovlarni amalga oshirib, bunda istiqbolli va keng dunyo qarashga ega bo'lgan yosh avlod vakillarini boshqaruv tizimiga jalb qildi. Xavfsizlikni va huquqni muhofaza qilishni ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan organlarni tubdan qayta tashkil etish ishlari olib borildi. O'zbekiston rasmiylarining demokratiya va inson huquqlarini monitoring va targ'ib qilish uchun mas'ul bo'lgan xalqaro tashkilotlar va organlar bilan hamkorlik qilishga tayyorligi yana bir ijobiy belgidir.

Hozirgi davrda, amalga joriy etish jarayoni muhim o'rin tutadi. Islohotlar jarayoni past asoslardan boshlangan o'lsada, bunda sezilarli muvaffaqiyatlar ko'zga tashlanmoqda. Ayniqsa, qonun ustuvorligi va sud mustaqilligi kabi sohalarda sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. Davlat organlari faoliyatini yanada shaffof va mas'uliyatli qilishda sezilarli yutuqlarga erishildi. Hukumat tomonidan davlat idoralarining faoliyatini yanada shaffof qilishda va mas'uliyatini oshirishda sezilarli yutuqlarga erishildi. O'zbekiston hukumati islohotlarni amalga oshirishga qat'iy bel bog'laganligi natijasida, demokratik institutlarni mustahkamlash, fuqarolik jamiyatining faoliyat ko'lamini kengaytirish, ommaviy axborot vositalarining erkinligini ta'minlash va ayollarning faolligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keyingi qadamlar kutilmoqda.

## Erkin saylov va vakillik hukumati

Erkin, adolatli va raqobatli saylovlar

1992 yilda qabul qilingan va bir necha marta o'zgartirishlar kiritilgan O'zbekiston Konstitutsiyasida erkin saylovlar va vakolatli hukumatga oid huquqiy asoslar belgilab berilgan. VIII bobda fuqarolarning mamlakat siyosiy hayotida ishtirok etish huquqlari belgilab berilgan. XXIII bobda fuqarolarning teng saylov huquqlariga bo'lgan huquqi qonun bilan kafolatlanganligi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, Markaziy saylov komissiyasi "mustaqillik, qonun ustuvorligi, kollegiallik, oshkoralik va adolat" tamoyillari asosida tashkil etilganligi ta'kidlanadi. 76-moddaga ko'ra, parlamentning yuqori palatasi (Senat) va qonunchilik palatasi (Oliy Majlis) deputatlari besh yil muddatga saylanadilar. 90-moddada Prezident "besh yil muddatga umumiy, teng huquqlik va bevosita" saylov huquqi asosida fuqarolar tomonidan saylanishi belgilangan.

1. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari Zayd Ra'ad Al Husseinning O'zbekistonga qilgan safari chog'ida matbuot anjumani ochilishidagi nutqi, 2017 yil, May .

2. Elning 2016 yilda dunyo bo'ylab inson huquqlari va demokratiya bo'yicha yillik hisobot, Oktyabr 2017, s 94-6.

Mustaqillikka erishilgan so'ng, O'zbekistonda erkin saylovlar va vakillik hokimiyati prinsiplarini qo'llash zaif edi. Saylovlar umumiy ovoz berish tamoyillari asosida o'tkazilib, saylovchilarga qator rasmiy nomzodlar taklif etilishiga qaramasdan, saylovlar o'tkaziladigan umumiy muhit saylovchilarga erkin yoki mazmunli tanlov imkonini bermadi.<sup>3</sup> O'zbekiston hukumati EXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi (DIIHB) saylov bo'yicha missiyasining qonunlarni xalqaro me'yorlarga etkazish va qonunbuzarliklarni bartaraf etish uchun mo'ljallangan tavsiyalarini qisman qabul qildi.<sup>4</sup> DIIHBning ta'kidlashicha, 2016 yilgi prezident saylovlari davrida O'zbekiston hukumati tomonidan yangi yondashuv kuzatildi. Saylovlarni xalqaro standartlarga muvofiq ravishda o'tkazish istagi bildirilganidan so'ng, DIIHBning saylovga bo'lgan ehtiyojni baholash missiyasi to'liq saylov kuzatuv missiyasining O'zbekistonga ilk bor jo'natilishi lozimligini tavsiya qildi.<sup>5</sup>

Saylovlarni kuzatish bo'yicha missiyaning yakuniy hisobotida, Prezident saylovlari "Uzoq muddatli kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar zaruratini ochib bergani" ta'kidlab o'tildi. Unga ko'ra, O'zbekistonning saylov qonunchiligini xalqaro standartlarga moslashtirish uchun bir qator tavsiyalar ishlab chiqildi. Ular saylovlar o'tkaziladigan umumiy muhitni demokratlashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni va yangi umumiy saylov kodeksini va saylovchilarning markaziy ro'yxatini o'z ichiga qamrab oladi.<sup>6</sup>

Markaziy saylov komissiyasi ushbu tavsiyalarni amalga oshirish uchun bir qator chora-tadbirlarni ishlab chiqmoqda. 2017 yilning dekabr oyida, Toshkentda bo'lib o'tgan tuman kengashlari saylovlarida yagona elektron saylovchilar ro'yxati ilk bor qo'llanildi. Keyingi parlament saylovlari 2019 yil oxiriga va navbatdagi prezident saylovlari 2021 yilning oxiriga mo'ljallangan.

## Vakolatni taqsimlash va samarali nazorat va muvozanatlar

O'zbekiston Konstitutsiyasida vakolatlarni taqsimlashga asoslangan davlat uchun huquqiy asos yaratilgan. 11-moddada ta'kidlanishicha, O'zbekiston davlati "qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlari o'rtasida vakolatlarni taqsimlash tamoyillariga" asoslanadi. Biroq, ekspertlarning umumiy fikricha, mustaqillik yillari davrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hukumat, parlament va sud hokimiyatini boshqarish va nazorat qilish bo'yicha jiddiy rasmiy va norasmiy vakolatlariga ega bo'lib kelgan.

Davlat hokimiyati organlari o'rtasidagi muvozanatni tiklashga qaratilgan urinishlar 2011 va 2014 yillarda qabul qilingan Konstitutsiyaviy tuzatishlar asosida amalga oshirildi, unda Prezident vakolatlari Bosh vazir va Parlamentga berildi. 2011 yilda Bosh vazir nomzodini ko'rsatish huquqi Oliy Majlisda ko'pchilikni tashkil etuvchi partiyaga o'tkazilib, nomzod Prezident tomonidan tasdiqlanishi belgilab berilgan. Parlamentga Prezidentdan Bosh vazirni bo'shatish va Vazirlar Mahkamasini tarqatib yuborishni deputatlarning uchdan ikki qismi ovoz berishi asosida talab qilish huquqi berilgan. 2014 yilda, Bosh vazirga ijtimoiy va iqtisodiy siyosatni shakllantirish uchun keng vakolatlar berildi. Biroq, 2017 yilning boshida DIIHB rasmiy vakolatlarning taqsimlanishidan tashvish bildirdi va amalda vakolatlar yuqori darajada markazlashtirilgan bo'lib qolmoqda.

3. YETTB/DIIHB Saylovlarni kuzatish bo'yicha cheklangan Missiyasi, yakuniy hisobot, Iyun 2015.

4. YETTB/DIIHB va huquq orqali demokratiya uchun Yevropa Komissiyasining (Venetsiya komissiyasi) qo'shma bayonoti, 2012.

5. YETTB/DIIHB Ehtiyojlarni baholash missiyasi hisoboti, Oktyabr 2016.

6. YETTB/DIIHB Saylovlarni kuzatish bo'yicha missiyaning yakuniy hisoboti, Mart 2017.

7. YETTB/DIIHB Saylovlarni kuzatish bo'yicha missiyaning yakuniy hisoboti, Mart 2017

2017-yilda qator yutuqlar kuzatildi. Prezident Hukumatning iqtisodiy va ijtimoiy ustuvor siyosatini belgilashda va davlat organlari rahbarlarini tayinlashda hal qiluvchi ta'sir ko'rsatishda davom etgan bo'lsa-da, Vazirlar Mahkamasi qo'shimcha Bosh vazir o'rinbosari lavozimi tuzilishi orqali kuchaytirilib, ma'muriy-tahliliy yordam organlari qayta tuzildi, Markaziy bankning mustaqilligi kuchaytirilib, ba'zi moliyaviy vakolatlar viloyatlarga berildi.

Rivojlanish strategiyasi "Oliy Majlisning (parlamentning quyi palatasi) rolini kuchaytirish, uning ichki va tashqi siyosatning eng muhim vazifalarini hal etishda vakolatlarini yanada kengaytirish va ijro etuvchi hokimiyat ustidan parlament nazoratini amalga oshirishga" yo'naltirilgan. 2017 yil mobaynida, parlament a'zolari yuqori lavozimli amaldorlarning hisobotlarini tingladilar va qonun ijrosini nazorat qilishni kuchaytirdilar. Ushbu ishni qo'llab-quvvatlash uchun parlamentning analitik salohiyati kuchaytirildi. Ushbu islohotlar past asoslardan boshlandi va bu sohada yanada samarali o'zgarishlar kutilmoqda.

Rivojlanish strategiyasi "sud hokimiyatining haqiqiy mustaqilligini ta'minlash, sudlarning mavqeyini oshirish va sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish"ga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga ham chaqiradi". 2017 yilda, sud-huquq tizimini mustahkamlashni ta'minlashga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar qabul qilindi. Ulardan eng muhimi, Prezidentning asosiy vakolatlarini mustaqil organga yuklash imkonini bergan Oliy Sud Kengashini tashkil etish (quyida qarang) bo'ldi. Shu bilan birga, Oliy xo'jalik sudi Oliy sud bilan birlashtirilib, yangi tuzilma Konstitutsiyaviy sud bilan birga, yanada samarali va obro'li so'nggi apellyatsiya sud organiga aylantirildi. Ma'muriy huquq tizimini joriy etish ham sud hokimiyatining salohiyatini oshiradi (quyida ko'rib chiqing).

## Saylangan mansabdor shaxslarni boshqarish uchun samarali vakolatlar

O'zbekiston konstitutsiyasida mamlakatning saylangan mansabdor shaxslari uchun samarali boshqaruvni amalga oshirish uchun huquqiy asos yaratilgan. 7-moddada mamlakatning kommunistik o'tmishi bilan hayrlashgani va davlat boshqaruvi "faqatgina O'zbekiston Konstitutsiyasi tomonidan vakolatlangan organlar va uning asosida qabul qilingan qonunlar asosida amalga oshirilishi" ta'kidlab o'tiladi. Amalda, O'zbekistonda qaror qabul qilish jarayonining shaffofligi hamon to'liq amalga oshirilmagan va zarur jarayonlarni amalga oshirish barqaror emas edi.

Prezidentning 2017-yil dekabridagi parlamentga yo'llagan murojaatida, "vakolatlari asossiz ravishda kengaytirilgan" Milliy xavfsizlik xizmati (MXX) tizimini isloh qilish zarurati ta'kidlab o'tildi." 2016 yil oxiridan e'tiboran bir qator harbiy qismlar MXX boshqaruvidan chiqarilib, boshqa organlarning javobgarligi ostiga o'kazildi. 2018 yilning fevralida, prezident MXXni uzoq vaqt boshqarib kelgan raxbarini va Milliy xavfsizlik xizmati va Bosh prokuraturaning bir qator boshqa mansabdor shaxslarini egallab turgan lavozimlaridan ozod etdi. Aprel oyi boshida, Prezident qayta tuzilgan Davlat xavfsizlik xizmati haqidagi yangi qonunga imzo chekdi, va bunda ilk bor mazkur davlat organing faoliyati uchun huquqiy asos yaratilib, muayan yo'nalishlardagi mas'uliyatini belgilab berdi va parlament va Bosh Prokuraturaga uning ustidan nazorat qilish vakolatlari berildi.

Harbiylar davlat nazorati ostida bo'lib, mamlakatning siyosiy qarorlarni qabul qilish jarayonida muhim o'rin tutmaydi.

## Fuqarolik jamiyati, ommaviy axborot vositalari va ishtirok etish

### Fuqarolik jamiyatining miqyosi va mustaqilligi

O'zbekiston Konstitutsiyasining VIII bobida O'zbekiston fuqarolarining mamlakatning siyosiy hayotida ishtirok etishlari va ularning manfaatlarini himoya qilish uchun nohukumat tashkilotlarini shakllantirish uchun huquqiy asos yaratilgan. 58-modda, fuqarolik jamiyati tashkilotlarining huquqlarini va ular uchun ijtimoiy hayotda ishtirok etish imkoniyatlarini kafolatlaydi. Biroq, 57-modda fuqarolik jamiyati tashkilotlarining qator sohalarda faoliyat yuritishni chegaralash orqali, ularning samarali faoliyat yuritish qobiliyatiga doir keng ko'lamli cheklovlar uchun qonuniy asoslar yaratadi.

2015 va 2016 yillar mobaynida qabul qilingan qonunlar yangi fuqarolik jamiyati tashkilotlarini ro'yxatga olishda jiddiy to'siqlarni yuzaga keltirgan va mavjud bo'lganlarining faoliyati to'xtatilishiga olib kelgan.<sup>9</sup> 2000 yillar oxiriga kelib, O'zbekistonda tadbirkor ayollar va atrof-muhit kabi masalalar bilan shug'ullanuvchi ko'plab nosiyosiy ijtimoiy uyushmalar faol bo'lgan. Ular rasmiy siyosatga mos keladigan va ba'zan davlat organlari tomonidan moliyalashtirilgan loyihalarni amalga oshirishga intilganlar. Biroq, fuqarolarga siyosiy va inson huquqlari sohasida faoliyat yuritadigan mustaqil fuqarolik jamiyati tashkilotlarini tashkil etish huquqi deyarli berilmagan edi.<sup>10</sup>

2016 yil oxiridan boshlab, fuqarolik jamiyati tashkilotlari ishlaydigan muhit past asoslardan boshlab yaxshilana boshladi. Rivojlanish strategiyasining maqsadlari sirasiga "fuqarolik jamiyati rolini mustahkamlash" maqsadlari ham kiritilgan. Fuqarolik jamiyati vakillari yangi tashkil etilgan Oliy Sud Kengashi tarkibiga kiritildi, xalqaro inson huquqlari tashkilotlari bilan uchrashuvlarda va paxta terimida majburiy mehnat masalalari bo'yicha jamoatchilik muhokamalarida ishtirok eta boshladilar. Kichik miqyosdagi norozilik namoyishlari o'tkazish huquqi bo'yicha cheklovlar yumshatildi. May oyida Prezident fuqarolik jamiyati tashkilotlari uchun normativ-huquqiy bazani sezilarli darajada yumshatish istiqbolini belgilab bergan qarorga imzo chekdi, ammo islohotlar ko'lami uning qanday amalga oshirilishiga bog'liq.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 34-moddasida fuqarolarning kasaba uyushmalari tuzish huquqi kafolatlanadi. 57-moddada kasaba uyushmalarining ishchilarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilishi va bu a'zolik ixtiyoriy bo'lishi kerakligi ta'kidlanadi. O'zbekiston hukumati mehnat uyushmalari uchun sharoitlarni yaxshilash bo'yicha choralar ko'rmoqda. 2014 yildan boshlab, O'zbekistonda mehnat va ijtimoiy muhofaza masalalari keng qamrab oluvchi XMTning Munosib mehnat dasturi (MMD) faol joriy etila boshlandi. 2016 yilning dekabr oyida O'zbekiston 1948 yil Uyushish erkinligi va uyushish huquqini himoya qilish to'g'risidagi konventsiyani ratifikatsiya qildi, va bu XMTning barcha asosiy konventsiyalariga qo'shilishni anglatadi. 2017 yil fevralida, O'zbekiston hukumati MMDni 2020 yilga qadar qo'llashni belgiladi.

## Tsenzurasiz faoliyat yuritadigan mustaqil, pluralistik ommaviy axborot vositalari

O'zbekiston Konstitutsiyasida ommaviy axborot vositalari erkin faoliyat yuritishi mumkin bo'lgan huquqiy asoslar belgilab berilgan. 29 va 67-moddalarda, fuqarolarning axborot olish va tarqatish va mustaqil ommaviy axborot vositalaridan foydalanish huquqlari belgilab berilgan. Shu bilan birga, bunday axborot "mavjud konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilmasligi" shartligi va ommaviy axborot vositalarining "tarqatilinayotgan axborot ishonchligi uchun javobgar" ekanliklari alohida ta'kidlab o'tilgan. Mutaxassislarning xulosalariga ko'ra, mustaqillik yillari davrida O'zbekiston hukumati barcha yirik ommaviy axborot vositalari ustidan nazorat o'rnatgan. Davlat televideniyesi va bosma ommaviy axborot vositalari cheklangan miqdordagi ma'qullangan mavzular bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish bilan chegaralangan.

9. YETTB/DIIB Saylovlarni kuzatish bo'yicha missiyaning yakuniy hisoboti, Mart 2017.

10. BMning Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasi. O'zbekistonning to'rtinchi davriy hisoboti bo'yicha yakuniy kuzatishlar, 2015, parag 24.



Xorijiy ommaviy axborot vositalari, shu jumladan raqamli axborot vositalaridan foydalanishga cheklovlar qo'yilgan va mustaqil jurnalistlar ta'qibga duchor qilingan.

2016 yilning oxiridan boshlab, yanada shaffof va plyural jamiyat qurishga qaratilgan harakatlar amalga oshirildi. 2017 yilgi rivojlanish strategiyasida "ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish va jurnalistlarning professional faoliyatini himoya qilish" masalalari ta'kidlab o'tilgan. Asosiy televidion kanallarda, shu jumladan Xalqaro matbuot markazida vazirlar va hukumat amaldorlari bilan uchrashuvlar uyushtirilib, paxta terimida majburiy mehnatdan foydalanish kabi keng ko'lamli munozaralarga sabab bo'lgan muammolar bo'yicha jonli dasturlar namoyish etildi.

Bir qator xususiy raqamli telestantsiyalarga asos solindi. Davlat tomonidan nazorat qilinadigan va muntazam OAVrida (jumladan, onlayn nashrlarda) yoritiladigan materiallar ko'lami kengayib, ularni sharxlashda ko'proq erkinlik bera boshlandi. O'zbekistondagi internet foydalanuvchilari uchun samarali tarzda ta'qiqlangan xorijiy va muxolifatdagi veb-saytlarga erkinlik berildi. Ushbu islohotlar past asoslardan boshlanib, islohotlar bo'yicha keyingi qadamlar kutilmoqda.

## *Siyosiy partiyalar tuzish va uyushgan muxolifatning mavjudligi*

O'zbekiston Konstitutsiyasida siyosiy partiyalar tuzilishi mumkin bo'lgan huquqiy asoslar belgilab berilgan. Shuningdek, ularning faoliyatini tartibga soladigan keng miqyosli mezonlar ham ko'rsatib o'tilgan. 56-moddada, siyosiy partiyalar hukumat tomonidan rasmiy ro'yxatga olinishi shartligi ta'kidlangan. 57-moddada siyosiy partiyalarning faoliyati to'xtatilishi mumkin bo'lgan asoslar belgilab berilgan. 60-moddada, siyosiy partiyalar "turli xil ijtimoiy qatlamlar va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalashi" va parlamentga o'zlarining moliyalashtirish manbalari haqida ma'lumot taqdim etishlari lozimligi belgilab o'tilgan.

Ayni paytda O'zbekistonda to'rtta siyosiy partiya ro'yxatga olingan. Ular jamiyat ichida alohida guruhlarini jalb qilish uchun mo'ljallangan bo'lib, ularning barchasi parlamentda vakillarga ega bo'lib, asosan hukumatni qo'llab-quvvatlaydi. 2017 yil boshida, DIIHB O'zbekistonda siyosiy partiyalarning holati BMTning 1996 yilgi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktidagi xalqaro majburiyatlariga zid kelishi mumkinligi haqida xavotir bildirdi.<sup>11</sup> Rivojlanish strategiyasida "parlament va siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish" muhim ustuvor vazifalar sifatida belgilab qo'yilgan bo'lsa-da, bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar past asoslardan boshlanib, bu borada keyingi qadamlar kutilmoqda.

## *Qonun ustuvorligi va adolatga erishish*

### *Qonun ustuvorligi*

O'zbekiston Konstitutsiyasida qonun ustuvorligini ta'minlash uchun huquqiy asos mavjud. 15-moddada "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining va qonunlarining so'zsiz ustuvorligi" belgilab qo'yilgan. 19-moddada, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan huquq va erkinliklardan mahrum etilishi noqonuniy bo'lib, bu faqat sud tomonidan amalga oshirilishi mumkin. 25-moddada fuqarolar faqatgina belgilangan tartib-qoidalar asosida hibsga olinishi mumkinligi ta'kidlab o'tilgan. 26-moddada aybsizlik prezumptsiyasi huquqlari belgilangan. 116-moddada, sud jarayonining har bir bosqichida fuqarolarga "professional sud yordami"dan foydalanish huquqi berilgan. Biroq, inson huquqlarini monitoring qilish uchun mas'ul bo'lgan xalqaro tashkilotlar O'zbekistonda bu tamoyillarga yetarli darajada amal qilinmasligi haqida tashvish bildirdilar.<sup>12</sup>

11. YETTB/DIIHB Saylovlarni kuzatish bo'yicha missiyaning yakuniy hisoboti, Mart 2017.

12. BMTning Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasi. O'zbekistonning to'rtinchi davriy hisoboti bo'yicha yakuniy kuzatishlar, 2015, parag 15-17.

2016 yil oxiridan e'tiboran, O'zbekiston hukumati huquqni muhofaza qilish organlari ustidan sud hokimiyatini kuchaytirish va adolatli sudlovni ta'minlash bo'yicha bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Prezident habeas corpus tamoyili izchil qo'llanilishi kerakligi haqida bir necha bor gapirib o'tdi. 2017 yilning aprelida qabul qilingan qonunga ko'ra, sud jarayonigacha qamoqda saqlash davrini 72 soatdan 48 soatgacha qisqartirilgan. Shuningdek, bunda huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan olib borilayotgan tergov ishlari ustidan sud nazoratini kuchaytirish ham ko'zda tutiladi. Mahbuslar bilan o'tkazilgan suhbatlarning yozib borilishi va ular saqlanadigan qamoqxonalarda kameralar o'rnatilishini ta'minlash to'g'risidagi farmon bu sohada amalga oshirilgan choralardan biri bo'ldi.

93 (19) -moddada favqulotda holat e'lon qilinishi mumkin bo'lgan holatlar belgilab berilgan. 2016 yil iyun oyida, BMTning Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasi tavsiyasiga javoban, favqulodda holat e'lon qilish shartlari va tartib-qoidalarini batafsil bayon etgan qonun qabul qilindi.

Inson huquqlarini himoya qilish va monitoringi uchun mas'ul bo'lgan xalqaro tashkilotlar, O'zbekiston hukumati "Andijon voqealari" qurbonlari unutilmasligini va ularning shikoyatlarini ko'rib chiqishlarini talab qilishda davom etmoqdalar.<sup>13</sup>

## *Sud organlarining mustaqilligi*

O'zbekiston Konstitutsiyasida sud tizimining mustaqilligining huquqiy asoslari belgilab berilgan. 106-moddada ta'kidlanishicha, sud tizimi "qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan va boshqa jamoat tashkilotlaridan mustaqil ravishda ish yuritadi". 112-moddada sudyalarning "mustaqilligi va faqat qonunga bo'ysunishi belgilab qo'yilgan. Sudyalarning o'z vazifalarini bajarishdagi faoliyatiga har qanday aralashuvlar noqonuniy sanaladi". Xuddi shu moddada sudyalarning qonunga muvofiq "daxlsiz" ekanliklari ta'kidlangan. Shu bilan birga, ekspertlar, amalda, sud tizimi ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa rasmiy va norasmiy manbalardan mustaqil ravishda faoliyat yuritishlarida yetarlicha vakolatga ega ekanliklari haqida havotir bildirganlar.<sup>14</sup> 2015 yilda, Birlashgan Millatlar Tashkiloti sobiq mustaqil Advokatlar palatasi ijroiya hokimiyatiga bo'ysunishini belgilab beruvchi 2009 yilgi qonun haqida xavotir bildirdi.<sup>15</sup>

2017 yilda, sud tizimining mustaqilligi va vakolatlarini mustahkamlash borasida muhim qadamlar qo'yildi. Rivojlanish strategiyasi "qonun ustuvorligi va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishni kafolatlash"ni keyingi ustuvor yo'nalish sifatida belgilab berdi. Fevral oyida, Prezident ma'muriyati qoshidagi sudyalarni tanlash, lavozimga tayinlash va tartibga solish bo'yicha komissiya vakolatlari, Prezident farmoniga ko'ra Prezident tomonidan tasdiqlanadigan davlat amaldorlari, yuridik kasb egalari, huquqiy ekspertlar va fuqarolik jamiyati vakillaridan iborat 21 a'zodan iborat bo'lgan Yuqori Sud Kengashi javobgarligi ostiga o'tkazildi. Kengash raisi Prezident tomonidan tayinlanadi va Senat tomonidan tasdiqlanadi. Ushbu farmonda shuningdek, BMTning Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasining tavsiyalari asosida, sudyalarga doimiy uy-joyga egalik qilish huquqlarini kafolatlash tamoyillari belgilab berilgan.

## *Hukumat va fuqarolar qonun oldida tengdirlar*

Biroq, ekspertlar, amalda bu tamoyillarning amalga oshirilishi qanchalik izchil ekanligi haqida xavotir bildirish bilan birga, siyosiy aloqalarga ega bo'lgan shaxslar yoki huquq-tartibot idoralari xodimlari doimo ham o'z xizmat vazifalarini suiste'mol qilganliklari uchun javobgarlikka tortilmasliklarini ta'kidlab o'tdilar.

13. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari Zayd Ra'ad Al Husseinning O'zbekistonga qilgan safari chog'ida matbuot anjumani ochilishidagi nutqi, 2017 yil, May. Bu 2005 yilgi Andijon shahrida o'zbekiston xavfsizlik xizmati kuchlari tomonidan sodir etilgan ommaviy qirg'innlarni nazarda tutadi.

14. AQSh Davlat Departamenti. O'zbekistonda 2016 yilgi Inson huquqlari bo'yicha hisobot.

15. BMTning Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasi. O'zbekistonning to'rtinchi davriy hisoboti bo'yicha yakuniy kuzatishlar, 2015, parag 21.

2017 yilda ushbu kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Eng e'tiborlisi, onlayn portallar fuqarolarga davlat organlariga, shu jumladan Prezident va davlat organlariga nisbatan shikoyat qilish imkoniyatlarini yaratib berdi. Ushbu mexanizmlar ommaviy va samarali ekanligi isbotlandi. Prezident 2017 yildagi mamlakat parlamentiga murojaatida, 1,5 million fuqaro ushbu portallarga murojaat qilgani va ko'pgina muammolar hal qilingani haqida hisobot berdi.

Bundan tashqari, rasmiy davlat organlari va ma'sul shaxslarni korxonalar, fuqarolik jamiyati tashkilotlari va fuqarolar oldida javobgarligini oshirish maqsadida ma'muriy huquq tizimini yaratishga birinchi qadamlar qo'yildi. Parlament jamoat nazorati to'g'risidagi qonunni ko'rib chiqmoqda va unga ko'ra ular davlat organlariga birlashtirilgan jamoatchilik kengashlarini tuzadi va ular orqali jamoatchilikning davlat organlari faoliyatidagi ishtirokini ta'minlaydi.

## *Korruptsiyaning oldini olish uchun samarali siyosat va institutlar*

Korruptsiya O'zbekistonda yechimini kutayotgan jiddiy muammolardan biridir. Asosan byurokratik tartib-qoidalar, litsenziyalanadigan talablar va o'zboshimchalik bilan tekshirishlar orqali davlatning iqtisodiy hayotga yuqori darajadagi aralashuvi korruptsiya uchun qulay muhit yaratdi. O'zbekiston Transparency International tashkilotining 2016 yilgi korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha indeksida quyi pog'onalarda bormoqda (176 pog'onadan 156si), biroq 2000-yillarning o'rtalariga borib, siljishlar ko'zga tashlana boshladi. Yaqin vaqtgacha, ekspertlarning hulosasiga ko'ra, hukumat korruptsiyaga qarshi kurashish borasidagi harakatlar doirasida korruptsion shaxslarga, jumladan yuqori lavozimli mansabdorlarga qarshi davriy va muvofiqlashtirilgan kampaniyalarni amalga oshirib keldi.<sup>16</sup>

Shunga qaramay, 2017 yilda islohotlarni jadallashtirishga yo'naltirilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Yanvar oyida, Prezident Korruptsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi qonunni imzoladi. Keyinchalik, Bosh prokuratura qoshida 43 ta davlat organlari va qonun chiqaruvchi vakillari ishtirokida yangi Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoralararo komissiya tashkil etildi. Shu davrga qadar, korruptsiyaga qarshi kurash bo'yicha sa'y-harakatlarning umumiy muvofiqlashuvi uchun mas'uliyatli bo'lgan organ mavjud bo'lmay, uning yaratilishi korruptsiyaga qarshi kurashish uchun mas'ul bo'lgan xalqaro tashkilotlarning asosiy tavsiyalaridan biri edi. Ushbu huquqiy va institutsional o'zgarishlar biznes uchun byurokratik bosimni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar, shu jumladan, rejadan tashqari va o'zboshimchalik bilan tekshiruvlarni o'tkazish va so'm konvertatsiyasini joriy qilish biznes va xususiy shaxslarning korruptsionerlar oldidagi zaifligini sezilarli darajada kamaytirishi lozim.

## *Fuqarolik va siyosiy huquqlar*

### *So'z, axborot, din, vijdon, harakatlanish, uyushish, yig'ilish va xususiy mulk erkinligi*

O'zbekiston Konstitutsiyasida fuqarolarning asosiy ijtimoiy va siyosiy huquqlari kafolatlangan. 13-moddada ta'kidlanishicha O'zbekistonda demokratiya «insonga, uning hayotiga, erkinligiga, sha'ni va qadr-qimmatiga va boshqa daxlsiz huquqlari uchun eng yuqori qadriyatga ega bo'lgan umumiy tamoyillarga asoslanadi». VII bobda keng ko'lamli huquq va erkinliklar belgilangan. O'zbekiston BMT va EXHT a'zosi bo'lib, 70 dan ortiq inson huquqlari bo'yicha xalqaro, jumladan, 9 ta asosiy inson huquqlari konvensiyalaridan 6 tasi va shuningdek 4 ta umumiy protokolga a'zo mamlakat sanaladi.<sup>17</sup> Evropa Ittifoqi O'zbekiston bilan inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha yillik muloqot olib boradi.

16 O'zbekistonda korruptsiyaga qarshi islohotlar. 3-tur. Korruptsiyaga qarshi Istanbul harakat rejasini monitoring qilish, IHRT.

17. BMTTD O'zbekiston, electron sayti.

Xalqaro tashkilotlar rasmiy va amaliy ravishda O'zbekistondagi inson huquqlari holatini doimo tanqid qilib kelganlar. Evropa Ittifoqi o'zining 2016 yilgi hisobotida, dunyodagi inson huquqlari holatini shunday tasvirlaydi: "Asosiy muammolar hamon quyidagi yo'nalishlarda mavjud: ijtimoiy va siyosiy huquqlarga hurmat, fuqarolik jamiyati uchun tartibga solish muhiti va siyosiy sabablarga ko'ra ta'qib qilish, mahbuslarni davolash / qiynoqlarning oldini olish va inson huquqlari himoyachilarining ishlariga taalluqli masalalar".<sup>18</sup> Siyosiy sabablarga ko'ra ko'plab mahbuslar ustidan olib borilgan sud ishlari asossiz deb topildi. 2013 yildan boshlab, ayrim rivojlanish belgilari ko'zga tashlana boshladi. 2014 yilda, O'zbekiston hukumati BMTning inson huquqlari bo'yicha Shartnoma organlari va Universal davriy tahlil qilish bo'yicha tavsiyalarni bajarish bo'yicha Milliy harakat rejasini (MHR) qabul qildi. 2016 yilning noyabrida, BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasi MHR loyihasini amalga oshirish maqsadida Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz bilan kelishuv imzoladi.

2017-yilda, O'zbekiston hukumati tomonidan qabul qilingan chora-tadbirlar bundan-da yuksak taraqqiyotni ta'minlashi kutilmoqda. BMTning inson huquqlari bo'yicha agentliklari bilan hamkorlik istiqbollari qayta ko'rib chiqildi. BMTning inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari Zayd Rahad Al Xusayn, 2017 yil may oyida O'zbekistonga tashrif buyurdi. Uning Prezident bilan uchrashuvi chog'ida, Bishkekda joylashgan OHCHR Mintaqaviy idorasi O'zbekistonda o'z faoliyatini boshlashi zarurligi haqida kelishuvga erishildi. BMTning inson huquqlari bo'yicha byurosi raxbari O'zbekistonga tashrifi davomida "biz - imkon qadar tezroq - ko'proq siyosiy mahbuslarni, jumladan uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etilganlarni ozod qilish jarayonini davom ettirishimiz zarur" deb ta'kidladi ..."<sup>19</sup>

Oktyabr oyida, BMTning din va e'tiqod erkinligi masalalari bo'yicha maxsus ma'ruzachisi O'zbekistonga ilk bor 15 yillik tanaffusdan so'ng tashrif buyurdi. Hukumat diniy taqvodorlarga nisbatan o'z yondashuvni yumshatgani haqida ishora berdi: Avgust oyida, maxsus monitoring nazorati ostida bo'lgan shaxslar soni 17 000 dan 1000 kishigacha kamaytirildi. Shunga qaramay, Maxsus ma'ruzachining fikriga ko'ra, diniy erkinlik konstitutsiya tomonidan kafolatlanganligiga qaramasdan, amalda "erkinlik ustidan xavfsizlik ustuvorligini belgilovchi ortiqcha qonun-qoidalar" mavjud".<sup>20</sup>

O'zbekiston hukumati inson huquqlarini yaxshilash bo'yicha boshqa qator choralarni ham ko'rdi. Avgust oyida, Inson huquqlari bo'yicha Ombudsmanni mustahkamlashga qaratilgan qonun qabul qilindi. Ombudsman fuqarolarning manfaatlarini himoya qilish va qamoqxonalarni tekshirish bo'yicha yangi vakolatlarga ega bo'ldi. O'zbekiston hukumati va inson huquqlarini nazorat qiluvchi xalqaro tashkilotlar o'rtasida muloqot qayta tiklandi. Siyosiy sabablarga ko'ra ushlangan mahbuslarning katta qismi ozod etildi. 2018 yil Aprel oyidagi holatga ko'ra, Evropa parlamentining 2014 yil oktyabr oyidagi qarorida ko'rsatib o'tilgan 34 ta "eng taniqli siyosiy mahbuslar" ning 26 nafari ozod etildi.

Xalqaro tashkilotlar va agentliklar, paxta yig'im-terimida bolalar va majburiy mehnatdan foydalanish holatlari bo'yicha bir necha bor tashvish bildirshi natijasida, ayrim g'arbiy mamlakatlar tomonidan o'zbek paxtasini import qilish taqiqlangan edi. 2014 yilda, O'zbekiston hukumati XMT bilan shartnoma imzolab, 2015 yilgi paxta terimida bolalar va majburiy mehnatni uchinchi tomon monitoringini o'tkazish dasturiga qo'shildi. 2016 yil oxirida, XMT tomonidan bolalar mehnatidan muntazam foydalanish amaliyoti butunlay tugatilgani va hokimiyat tomonidan majburiy mehnatni bartaraf etish bo'yicha qabul qilingan bir qator choralar e'tibor berildi. Natijada, Dekabr oyida Evropa parlamenti tomonidan 2011 yildan buyon amalda bo'lib kelgan o'zbek to'qimachilik mahsulotlarini import qilishni taqiqlovchi qonun bekor qilindi.<sup>21</sup> Biroq inson huquqlari sohasida faoliyat olib boradigan ayrim xalqaro tashkilotlar O'zbekiston tomonidan taqdim etilgan hisobotlarni tanqid qilishda davom etmoqda.

18. Evropa Ittifoqining inson huquqlari va demokratiya bo'yicha yillik hisoboti 2016 yil, oktyabr 2017, s. 94-6.

19. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari Zeid Ra'ad al-Husaynning O'zbekistonga tashrifi chog'ida matbuot anjumanida so'zlagan nutqi, may 2017.

20. Din va e'tiqod erkinligi masalalari bo'yicha maxsus ma'ruzachi tomonidan O'zbekiston Respublikasiga Davlat tashrifining dastlabki natijalari, Oktyabr 2017.

21. 2015 yilda O'zbekistonda paxta yig'im-terimi vaqtida bolalar va majburiy mehnatning uchinchi tomon monitoringi, XMT, 2015; 2015 yilda O'zbekistonda paxta yig'im-terimi vaqtida bolalar va majburiy mehnatning uchinchi tomon monitoringi, XMT, 2017; Evropa Ittifoqining inson huquqlari va demokratiya bo'yicha yillik hisoboti 2016 yil, oktyabr 2017, s. 94-6.

2017 yilda, hukumat tomonidan majburiy mehnatni qo'llashga barham berishga yo'naltirilgan choralarni kuchaytirdi. August oyida, paxta terimiga talabalar va davlat idoralari xodimlarini (jumladan sog'liqni saqlash va ta'lim muassasalari xodimlarini) jalb qilishni ta'qiqlovchi hukumat qarori qabul qilindi va ta'qiqqlarga qaramasdan paxta terimiga jalb qilingan shaxslar esa dala maydonlaridan o'z uylariga qaytarildilar. XMTning 2017 yilgi paxta mavsumi bo'yicha hulosasiga ko'ra, "amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar markaziy hokimiyatning majburiy mehnatdan butunlay voz kechishga bo'lgan siyosiy intilishini ko'rstamoqda. 2017 yilda, bu kabi maqsadlar yuqori siyosiy darajada tasdiqlanib, xozirda mazkur yo'nalishda amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda."

Ushbu masalaning doimiy ravishda hal qilinishi paxta sanoatini kompleks qayta qurish, paxta maydonini kamaytirish, tijorat paxtachilikni joriy etish va mexanizatsiyalashni rivojlantirishni talab qiladi. Paxta ekiladigan maydonlarni qisqartirish kabi ba'zi masalalarda, O'zbekiston hukumati bir qator choralar ko'rmoqda. 2017 yil davomida, mazkur yo'nalishdagi harakatlar jadallashtirilib, ko'lami kengaytirildi. Paxta terimchilariga to'lov miqdori sezilarli darajada, ba'zi hollarda ikki karra oshirilib, tijorat maqsadida paxta ishlab chiqarishga ruxsat berildi va mexanizatsiyalashtirishga yirik investitsiyalar kiritildi.

## *Ayollarning siyosiy hayotdagi ishtiroki, etnik va boshqa kichik guruhlar*

O'zbekiston Konstitutsiyasining 18 Moddasiga ko'ra, fuqarolar jinsiy mansubligidan qat'iy nazar qonun oldida tengdirlar. O'zbekiston Ayollarning Kamsitilishiga Barham berish Komissiyasiga (CEDAW) a'zo mamlakat sanaladi. Ammo shunga qaramay, ayollar yuqori davlat boshqaruvi organlari va parlamentda ozchilikni tashkil etadi. BMTning O'zbekistondagi inson huquqlari bo'yicha byurosining raxbari may oyidagi O'zbekistonga tashrifi yakunida o'tkazilgan matbuot konferentsiyasida yuqori lavozimlarda ayollar sonining kamligi bo'yicha o'z fikrini bildirib o'tdi. BMTning Inson huquqlari bo'yicha Qo'mitasi O'zbekistondagi ayollar rolini kengaytirish masalalari bo'yicha qator tavsiyalar berdi.<sup>23</sup> Rivojlanish strategiyasi "ayollarning ijtimoiy siyosiy faoliyatini oshirishga" chaqirsada, ammo shu davrga qadar bu sohada sezilarli o'zgarishlar amalga oshirilmadi.

18 modda etnik, diniy va boshqa guruhlarig ham huquqlarini kafolatlaydi. 4 moddaga ko'ra, O'zbekiston hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tili, an'ana va urf-odtlariga nisbatan hurmatni kafolatlab, ularni keng rivojlanishi uchun yetarlicha imkoniyatlar yaratib beriladi. Konstitutsiya asosan qoraqalpoq millati yashovchi Qoraqalpog'iston Respublikasiga rasman avtonomiya huquqi berilgan.

## *Tazyiq, qo'rqitish va qiynoqlarning oldini olish*

Konstitutsiyaga ko'ra fuqarolar qiynoqlardan qonunan himoyalanganlar. 26 moddaga ko'ra "shavqatsiz yoki inson qadr-qimmatini poy-mol qiluvchi qiynoq, kamsitish yoki shu kabi harakatlarni amalga oshirish qat'iyan ta'qiqlanadi". Bunday ta'qiqqlar Jinoyat Kodeksida aks ettirilgan. O'zbekiston BMTning Qiynoq va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazolarga qarshi konventsiyasini imzolagan mamlakatlar qatoriga kiradi. Biroq, inson huquqlarini himoya qilish va uning monitoring uchun javobgar bo'lgan xalqaro tashkilotlar hibsga olingan va qamoq jazosi o'tayotgan shaxslarga nisbatan zo'ravonlik qo'llanilayotgani haqida tashvish bildirmoqdalar.<sup>24</sup> 2017 yilda, O'zbekiston hukumati bunday muammolarning mavjudligini tan olib, uni nazorat ostiga olinishini kafolatlatdi. 2017 yilning noyabr oyida, Prezident tomonidan sud-tergov jarayonida qiynoqqa solish natijasida olingan dalillarni qo'llashni ta'qiqlovchi farmonga imzo chekildi. Shu bilan birga, farmonga ko'ra, dalillarning hibsga olingan shaxslar yoki ularning yaqin qarindoshlariga jismoniy va ruxiy bosim o'tkazish orqali olinishini bartaraf etish prokuratura xodimlariga yuklatildi. 2018 yil aprelida kuchga kirgan qonunda qiynoqlarga aniq va kengaytirilgan ta'rif berilib, kuch ishlatganligi uchun javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lgan shaxslarning kengaytirilgan ro'yxati ishlab chiqilgan va qiynoqlar qo'llanilganlik uchun jazo choralarni kuchaytirgan.

22. 2017 yilda O'zbekistonda paxta yig'im-terimi vaqtida bolalar va majburiy mehnatning uchinchi tomon monitoringi, XMT, 2018.

23. BMTning Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasi. O'zbekistonning to'rtinchi davriy hisobotida yakuniy kuzatishlar, 2015 yil, par.8-9.

24. BMTning Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasi. O'zbekistonning to'rtinchi davriy hisobotida yakuniy kuzatishlar, 2015 yil par. 13-14.